

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi**  
**Qarshi davlat universiteti**  
**Nemis tili va adabiyot kafedrasи**

Fayziyeva Latofat Maxmud qizining

“5220100 - nemis filologiyasi” ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun  
“Chet tillarni o'rgatishda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish ” mavzusida yozgan

**B i t i r u v   m a l a k a v i y   i s h i**

**Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M. T. Rahimova**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB.O'QUVCHILARDATALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKL LANTIRISH	
1.1.Nemis tili fonetikasi haqida umumiylumot.....	6
1.2. Nemis tili talaffuzini o'quvchilarga o'rgatishning mohiyati,o'rni va uni o'rgatishyo'llari.....	19
1.3 Gapirish nutq faoliyatining turi va malaka sifatida.....	39
II BOB.NEMIS TILI FONETIKASINING O'ZIGA XOS TOMONLARI VA UNI O'RGATISHDAQO'YILADIGANTALABLAR	
2.1.Nemischa unli va undoshlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning o'zbekcha unli va undoshlardan farqi.....	45
2.2. Nemischa talaffuzda o'quvchilarda uchraydigan fonetik xatolar va ularni bartarafetish yo'llari.....	49
2.3 .Gapirish ko'nikmalararini shakllantirishda o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar.....	52
III.XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	60

## KIRISH

Fan, texnika va texnologiyalar yutuqlari asosida ta’lim tizimini isloh qilishda davr sinovlaridan o’tgan ilg’or tajribalarni o’rganish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’tiborga olgan holda ularning joriy etilishini ta’minlash raqobotbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sanaladi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi „Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to’g‘risida“gi PQ-1875-son qarori chet tillarga bo’lgan talab va e’tiborning yaqqol namunasidir.

Bizning respublikamizda bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni turli sohalarda yaxshi faoliyat olib borishga tayyorlash lozim. Prezidentimiz Islom Abdug’anievich Karimov “Har kim chuqur va mustahkam bilimsiz oldimizda turgan vazifalarni bajarish mumkin emasligini tushunmog’i darkor”<sup>1</sup> deya ta’kidlaydilar.

Binobarin, xorijiy tillarni har tomonlama chuqur o’rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo’lmog’i lozim.

**Mavzuning dolzarbliji.** Til o’rganish kishilik jamiyatida bag’oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Aloqa vositasi bo’lmish tilni tabiiy muhitda yoki uyushgan holda dars mashg’ulotlarida amaliy egallah mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o’rganiladi. Biror chet tilini o’rganishga kirishgan o’quvchi bevosita tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga murojaat qiladi. Chunki tilshunoslikning bu bo’limlari tilning poydevori hisoblanadi .

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent,O’zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000 – yil.

Nemis til fonetikasini o'qitishdan asosiy maqsad nutq faoliyati har xil turlarining to'g'ri shakllanishini ta'minlaydigan nutqdafonetik malakalarni hosil qilishdan iborat. O'quvchilarda gapirish ko'nikmalarni shakllantirish uchun fonetik amallarni tanlash va topish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunga erishish uchun fonetik minimumlarni tanlash , til o'rganishning ilk bosqichidayoq gapirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun albatta har bir nemischa harfning talaffuziga alohida e'tibor berish lozim.Fonetik qoidalarga asoslangan holda har bir tovush talaffuzini o'quvchilarga o'rgatish va ularda uchraydigan xatolarni bartaraf etishga e'tibor ishning dolzarbliги hisoblanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.**Nemis va o'zbek tillarida fonetika mavzuida ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan.Chunonchi,nemis va o'zbek tillarida bu mavzu xususida fonetist olimlar Stotzer U., Karpov. K. Kuzmin O.G., Nork O. I., Nurmatov T. A., tadqiqot ishlarini olib borganlar.Ular nemis tilidagi tovushlarning strukturaviy talqini xususidadir.Ularning olib borgan tadqiqotlari va qilgan ishlari natijasida hozirgi nemis tili fonetikasida keng foydalanilmoqda.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**Nemis tili talaffuzini o'quvchilarga o'rgatishda ularda uchraydigan o'zbek tiliga taqlid natijasida yo'l qo'yiladigan fonetik xatolarni bartaraf etgan holda to'g'ri talaffuzga o'rgatish lozimdir. Bunga erishish uchun o'quvshilarda tinglab tushunish ko'nimalarini shuningdek, aktiv talaffuz etishga erishish tadqiqotning ilmiy yangiligidir.

**Tadqiqot predmeti va obyekti.**Gapirish ko'nikmasini shakillantish va rivojlanishida tinglab tushunish va to'g'ri talaffuzgao'rgayishda muhim ahamiyat kasb etadigan metodlar.

**Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari.**BMI ning asosiy maqsadi metodika fani bilan bog'liq bo'lib, ko'nikmalarning shakillanishini metodlar asosida tahlil qilishdan iborat.Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- til ko'nikmalarini shakillanishida nemis tili talaffuziga oid ma'lumotlarni jamlash;

- til ko'nikmalari (tinglab tushunish va gapishtirish ko'nikmalari)ni egallash jarayonida qaysi metodlar eng ko'p qo'llanilganligini kuzatish;
- tinglab tushunish va gapishtirish ko'nikmalaridagi fonetik qiyinchilik va muommolarni kuzatish;
- gapishtirish ko'nikmasining boshlang'ich darajasidagi talablar bilan tanishish;

**Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiqot usullari.** Tadqiqotning metodologik asosini o'quvchilarga nemischa talaffzni o'rgatishda albatta so'z urg'usi, intonatsiyava to'xtalish (pauza) ga e'tibor berish xusiyatlarini o'rganish va tahlil tashkil etadi. Nemis va o'zbek tillarida unli va undosh tovushlar ning o'ziga xosligi va ulardagi farqlar qiyosiy tahlili ttadqiqotning metodologik usulidir.

**Tadqiqotning metodlari.** BMIning asosini nemis tililini o'qitish metodlari, ta metodlarning qiyosiy tahlili, tinglab tushunish va gapishtirish ko'nikmalarida maqsadga erishish uchun yangi pedagogiktexnologiyalardan foydalanish usullari tashkil etadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning amaliy ahamiyati til ko'nikmalarini (Tinglab tushunish va gapishtirish ko'nikmasi) shakillanishi jarayonida qaysi metodlarni qo'llash jarayonida yutuqlarga ko'proq erishilgani aniqlanib, amaliyotda namoyon bo'lgan natijalar, erishilgan yutuqlarni ko'rsatib berish asosida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalari nemis tilining nazariy va amaliy fonetikasii fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, ulardan nemis va o'zbek tillarida talaffuz mavzuida ilmiy maqolalar yozishda, o'quv qo'llanmalari yaratishda, shuningdek oliy o'quv yurtlarida shu mavzuda maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkin. Tadqiqot xulosalari nafaqat nemis tili fonetikasi uchun, balki hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

**Bitiruv malakaviy ishining asosiy tuzilishi va hajmi** BMI kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, **61bet**.

## **I.BOB.O'QUVCHILARDATALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

### **1.1. Nemis tili fonetikasi haqida umumiy ma'lumot**

Fonetika grekcha phone-“tovush” so’zidan olingan bo’lib, u inson nutqini ifoda qilish uchun zarur bo’lgan tovushlar va tovush vositalari haqidagi sohadir.

Nutq tovushlarini tekshiradigan, o’rganadigan tilshunoslikning bir bo’limi fonetika deyiladi. Muayan ma’noda nemis till fonetikasi shu tildagi tovushlar tizimini, ularaing hosil bo’lish va o’zgarish qonuniyatlarini, so’zlarni ajratishdagi o’rnini tekshiradi. Shuningdek, fonetikada urg'u, bo'g'in kabi hodisalar ham o’rganiladi.

Inson tili tovush tilidir. Nutq tovushlari til uchun moddiy manba hisoblanadi. Fikr gap orqali ifodalanadi, gap esa so'zlardan tashkil topadi, so'zlar nutq tovushlaridan tuziladi.

Fonetika asosan to’rt tomanlama o’rganiladi:

- a) artikulatsion fonetika – nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakatini o’rganadi.
- b) akustik fonetikada esa tovushlar va tovush vositalari qandaydir fizik tebranishlar natijasi ekanligi o’rganiladi.
- v) eshitib his qilish; bunda nutq tovushlari, bo’g'in, urg'u va intonatsiyaning eshituvchi tomonidan anglab his qilish o’rganiladi.
- s) fonologiya (sotsial, funksional)da nutq tovushlari va tovushlar vositalarining tildagi so’zlar, so’z formalari, frazalar va gaplarni bir-birlaridan farqlash ularning ma’nosini kengroq ochish uchun xizmat qilishi o’rganiladi.

Fonetika – o’rganish sohasi va vazifasiga ko’ra 2 ga bo’linadi: umumiy va xususiy.

Umumiy fonetika barcha tillarga xos bo'lgan talaffuz xususiyatlarini o'rganadi.

Xususiy fonetika biror konkret tilga xos bo'lgan talaffuz xususiyatlarini o'rganadi.

Qo'yilgan maqsadga ko'ra ham fonetika 2 ga: nazariy va amaliy (normativ) fonetika

Nazariy fonetika biror tilning talaffuz alomatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi. Amaliy fonetika bir tilning talaffuziga o'rgatish maqsadida tuziladi.

Nutq tovushlari, bug'in, urug', va intonatsiyadagi artikulatsion – akustik xususiyatlarini alohida apparatlar yordamida o'rganadigan fonetika eksperimental fonetika deb yuritilgan.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental fonetika (segment-nutq bo'lish) deyiladi.

Nutq tovushlaridan katta birliklar, ya'ni bo'g'un, so'z va frazalarni o'rganuvchi fonetika supersegmental fonetika deyiladi.

## **Fonetika ham 2 ga**

- 1) tovushlarning tildagi funksional tomonlarini segmental fonologiya (fonomika, fonomatika) o'rganadi
- 2) bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning funksional alomatlarini supersegmental fonologiya o'rganadi.

Tildagi fonetik xususiyatlarning rivojlanishini o'rganadigan soha tarixiy (diokronik) fonetika.

Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining fonetikasidagi o'xshash va farqli tomonlarini o'rganadigan soha qiyosiy tipologik fonetika deb ataladi. Talaffuz organlari va tovushlarining artikulatsiyasi. Aktiv organlar til, lab,

yumshoq tashlay tovush paychalari. Passiv organlar: tish, milk, qattiq tanglay, o'pka, burun bo'shlig'i.

Tovushlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nutq mehanizmlari harakatining yig'indisi artikulyatsiya deb ataladi.

### **Akustik fonetika**

Nutq tovushlari sekundiga taxminan 1,100 marta tezlik bilan havo oqimining mexanik tebranishi natijasidir. Tovushlar asosan ikki asosiy akustik belgiga ega: amplitude va chastota. Amplitude (tebranish to'lqini) eshitish jihatidan tovushning ko'chiga ovozning baland yoki pasligiga to'g'ri keladi. Agar tebranish harakati tez bo'lsa, tovush baland tebranish chastotasiga ega bo'ladi va aksincha. Inson 15 dan 15000 gerstgacha bo'lgan tovushlarni eshitib his qila oladi. Eksperimental fonetika metodlari. Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy metod mavjud. Sub'yektiv va ob'yektiv. Sub'yektiv metod talaffuzni bevosita (ko'rish yoki eshitish) ko'zatishdan iborat.

Artikulyatsiyani o'rganuvchi metodlar ichida palatozlafiya va rentgenografiya alohida o'rinni tutadi. Palatografiya-sun'iy tanglay yordamida tilning holatini aniqlashdir.

Rentgenozgrafiya va pinorentgenografiya tovushning artikulyatsiyani juda aniq ko'rsatib beradi.

Osillografiylar tovush hosil bo'lishidagi garmonik tebranishlarni, nutq intonatsiyasini va frazani ma'no bo'laklarga bo'lishni o'rganish imkonini beradi.

### **Unli tovushlar klassifikatsiyasi**

Unli tovushlar umumiyligi tilshunoslik nuqtai-nazaridan: tilning gorizontal holatiga ko'ra; Tilning vertikal holatiga (ko'talilish darajasi) ko'ra; tovushlarning sifatiga ko'ra; (yopiq ochiq tovushlarining qisqa va cho'ziqligiga ko'ra; lablarning ishtirokiga ko'ra bir-biridan farq qiladi).

1. Tilning gorizontal holatiga ko'ra unlilar uch turga ajraladi:
  - a) Til oldi unlilari: i:, i; y:, y; e:, E:, E, ø:, œ, a. / u, a, e-o'zbek tillarida
  - b) Til orqa: u:, u, o:, c, a:, u, o', o
2. Tilning ko'tarilishi darajasiga ko'ra;
  - a) yuqori: i:, i, u:, u, u:, u. o'zb.t. i, u.
  - b) o'rta: e:, ε:, ε, ø:, œ, ə, o: ə. e, e, u.
  - v) quyi: a, a::

### 3. Lablarning ishtirokiga ko'ra

Tovushlarning funksional jihatni.

Asosiy fonologik tushunchalar

Nutq tovushlari ayrim holda (a, o, u) hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi. So'z, so'z formalarini va morfemalarini tashkil etuvchi va ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan til birligi fonema (grekcha-tovush, ovoz) deyiladi.

m-n: tol-til, kel-kul, qo'l-ko'l, pok-nok-tok fonologiya (grekcha pona-tovush, logos-talimot).

Fonemar tilning eng kichik bo'linmas segment birligidir. M-n: paxta so'zi l, a, x, t, a beshta fonemaga bo'linadi.

Fonologiyaning fonemalar birliklarini (gs, dz, kt, vz, qz, g'g) o'rnashuvchi qismi fonotastika deyiladi.

Fonologik birliklar: fonema, bo'g'in, urg'u va intonatsiya ishda qo'yidagi funktsiyalarini bajaradi:

- 1) tildagi yirik ma'noda birliklarni tashkil etuvchilik funktsiyasini bajaradi.
- 2) Farqlovchilik yoki differentsiyal funktsiyani bajaradi; tol-qol, olma (meva) -olma. Tuxta (ism) -to'xta.

3) Nutqda fonologik birliklar so'z va morfemalarni hamda frazalarni chegaralash funktsiyasini yoki delimitative (lot. kimistus-chevara) bajaradi: ng bilan so'z boshlanmaydi, h-b-n tugamaydi o'nta kam bir-o'nta kampir bilan farqlanadi

4) Bo'g'in urg'u va intonatsiya nutqni ifodali qilish uchun ekspressiv funksiya bajaradi.

Bu fonolostistikada o'rganiladi. Unli yoki undosh tovushlarni cho'zib aytish, intonatsiyaning melodiyasi va urg'usini odatdagidan boshqacha aytish xususiyatlari fonostistik belgilardir.

#### Fonologiya nazariyalarini

##### Tilshunoslik tarixida tovush tushunchasi 2 davrga

1. "Fonema" tushunchasi paydo bo'lganga qadar bo'lgan davr.
2. Fonologiya nazariyalarining yuzaga kelish davri.

Bu XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr. Fonologiyaning asoschisi mashxur rus va polyak olimi I.A.Boduen de Kurteng (1845-1929), uning shogirdi. N.V.Krushevekiy (1851-1887), fransuz olimi P.Passi, ingliz tilshunosi T.Suit, shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur, rus olimi P.K.Uslarning nomlari bor.

Hozirgacha ittifoq tilshunosligida qo'yidagi fonologiya nazariyalarini yaratilgan.

1. I.A.Boduen de Kurtene psixologik fonologiya nazariyasi. Uning ko'rsatishicha, fonema tildagi morfologik, sintaktik va semasiologik tushunchalar bilan bog'langan fonetik birlikdir.

2. Akademik L.V.Shcherba (1880-1944) fizik fonologiya nazariyasini yaratdi. U harbir nutq tovushi boshqa nutq tovushlari kabi qandaydir fizik, mexanik hodisa hisoblanadi. Bu tovushlar so'z va so'z formalarining ma'nolarini farqlay oluvchi tovush tiplariga birlashadi. Bunday tovush tiplari fonemalar

deyiladi. Umumiy tushuncha hisoblanuvchi fonemaning yakka holda nutqda talaffuz qilinuvchi vakili fonemaning ottenkasi hisoblanadi.

3. A.L.V. Shcherbaning shogirtlari ikki oqimga bo'linib, ilmiy bahs yordamida Moskva va Leningrad fonologiya maktablari nazariyalarini yaratdi. Moskva fonologiya maktabining vakillari A.A.Peformatskiy (1900-1978), P.S.Kuznetsov (1899-1968), V.N.Sidorov, R.I.Avanesov, M.V.Panov, A.M.Suxotin va boshqalar.

Leningrad fonologiya maktabi vakillari – L.R.Zinder, M.I.Matusevich, A.N.Tvordev, V.I.Litkin, Yu.S.Maslov va boshqalar.

Moskva fonologiya maktabi fonemaga ta'rif berishda morfema tushunchasiga, ya'ni tilning eng kichik ma'noli birligiga suyanadi. Bunda morfemalardagi tovush almashuvida ishtirok etuvchi tovushlar bir fonemaga birlashtiriladi. M-n, voda [vada], void [vodi], na vodu [na vadu] morfemalaridagi o, a, ' tovush almashuvi bir fonemasining variantlari hisoblanadi. Leningrad fonologiya maktabi fonemaga ta'rif berishda so'z formasi tushunchasidan kelib chiqadi va yuqoridagi misoldagi o,a,' tovushlarining har birini alohida fonemaning vakili sifatida qaraydi.

4. Turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasini yoritishda turkologlar V.V Radlov (1837-1918), V.A Bogorodskiy (1857-1941), E.D. Polivanov (1891- 1938), N.K Dmitriyev (1898-1954), S.E.Malov (1880-1957) kabilar hissa qo'shdi."Fonema" terminini turkologiyaga birinchi bo'lib 1920 yilda N.K.Dmitryev kiritgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligiga o'sha yillarda prof. D.Polivanov qo'lladi.

Chet el tilshunosligida keng tarqalgan fonologik nazariyalar:

1. Praga lingvistika maktabining fonologiya nazariyasining asoschisi mashhur olim N.S.Trubestkoy (1890-1938), R.Yakobson, V.Mateazius, B.Grika, I.Vaxek va boshqalardir.

Bu maktabning fonologik nazariyasi va metodlari bir necha tillarni ilmiy o'rghanishda qo'llanilib kelmoqda.

Bu mактаб fonologik oppoziyalar klassifikatsiyasi, fonologik neytralizatsiya, korrelyatsiya, fonemalarning birikmalarini ilmiy-nazariy tadqiq etish metodlarini taklif etdi.

2. London fonologiya mактabi va uning asoschisi D.Jounz fonema akustik jihatdan bir xil bo'lgan "tovushlar oilasi"dir.

3. Distributive fonologiya nazariyasi (AQSh) fonema akusitik jihatdan bir xil bo'lgan "tovushlar sinfi" yoki "allofonlar sinfi"dir.

4. Dixotomik fonologiya nazariyasi (AQSh) jahon tillaridagi fonemalarni o'n ikki juft binor (ikkitan dan qarama-qarshilik asosida) farqlanish belgilari asosida tasnif etish metodini taklif etdi.

5. Makro va mikrofonema nazariyasi. AQSh tilshunosi U.Tuold tomonidan 1935 yilda taklif etildi.

## **1.2. Nemis tili talaffuzini o'quvchilarga o'rgatishning mohiyati, o'rni va uni o'rgatish yo'llari**

Til o'rgatish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Aloqa vositasi bo'l mish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda darsda amaliy egalllash mumkin. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Nemis tiliini va aynan «Nemis tilini o'rganish» ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv ko'nikma va malakalarini egallahni ifodalaydi.

Nutq faoliyati turlari - gapirish, tinglab tushunishni, o'qish va yozuvni o'rgatish va til materiali leksika, fonetika, grammatikani o'rgatish natijasida o'quvchilarga nemis tilida o'zaro axborot almashish malakalari singdiriladi.

Tafakkur so'z va so'z birikmalarini va jumlalarni nutq faoliyatida qo'llash orqali sodir etiladigan murakkab ruhiy jarayondir. Nutq faoliyatining til materiallaridan biri fonetikadir. Maktablarda fonetika alohida o'qitilmaydi. Nemischa talaffuzga o'rgatish nutq faoliyatini o'rgatishda muhim o'rinni tutadi. U nutq faoliyatining asosini tashkil etadi, unli tovushlardan tuzilgan til kishilik jamiyatining birdan-bir tili bo'lib qolgan va bo'lib qolaveradi.

Biz o'quvchilarga fonetikani o'rgatishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, urg'uni to'g'ri qo'yishga, jumlalarni to'g'ri intonasiya bilan talaffuz silishga o'rgatamiz, ya'ni o'quvchilarda nemischa fonetik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiramiz va rivojlantiramiz. Ma'lumki, o'quvchi to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallagan taqdirdagina tildan aloqa vositasi sifatida unumli foydalana oladi. Nemis tilining talaffuz normalarini egallash nutq, nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi. Agar gapiruvchi nemis tili fonetik normalariga amal qilmasa, tinglovchi uni yaxshi tushunmaydi yoki mutlaqo tushunmaydi. Talaffuz eshitish (akustik), aytish (motor) va ma'no bildirish (semantik) kabi uch qismdan iborat. Ularning har bir tilda o'ziga xos ijro xususiyati mavjud. Tilning fonetik jihatini anglab gapirish, ya'ni talaffuz ko'nikmasini egallash nutqiy muloqotning muhim shartlaridandir.

Nemis tilida nisbatan ravon va yetarli tezlikdagi talaffuzni egallash asosiy talabdir. Bu, birinchidan, suhbatdoshlar bir-birlarini anglashlarini ta'minlasa, ikkinchidan, nutqning o'rtamiyona sur'atini ko'nikma tarzida egallashni taqozo etadi (ma'lumki, nutq sur'atini nemischa bir daqiqada 110-130 ta so'z talaffuz etilishini ilmiy tajribalar tasdiqlagan).

O'quvchi nutqi tushunarli bo'lishi uchun nafaqat ma'no ifodalovchi tovushlar (fonemalar) talaffuzini o'rgatishi, shuningdek, keng iste'moldagi sodda va qo'shma gaplarning asosiy ohangini (urg'usi, vazni, to'xtashi pauzasi), melodikasi kabilarni ham o'zlashtirib olishi kerak.

Demak, talaffuz ko'nikmasi artikulyasiya (aytish) va intonasiya (nutqiy ohangni qo'llash) operasiyalaridan tashkil topadi.

Psixolog, metodist va fonetislarning fikrlari tahlili nemischa talaffuzga o'rgatish bo'yicha turlicha qarashlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, ba'zi mualliflar o'quvchilarga «avval artikulyasion harakatlarni idrok etishga o'rgatib, so'ngra nemischa tovushni talaffuz qildirish kerak» degan fikrni olg'a suradilar.<sup>1</sup> Ushbu yo'nalish tarafdoqlarining fikricha, o'quvchilar nutq organlarining harakatini sezalishi va ularning boshqara olishlari uchun ovozsiz nutq gimnatikasiga oid mashqlar Norp O.A. va Adashova S.D. dasrliklarida o'rinn olgan.<sup>2</sup> Jumladan, tovush hosil qilish - artikulyasiyaga oid til, lablar, jag' harakatlariga oid mashqlar ushbu qo'llanmada batafsil berilgan. Masalan: bunday mashqlarda og'zingizni oching va oynaga qarab tilingiz uchini labingiz bo'ylab, avval chapdan o'ngga, so'ngra o'ngdan chapga aylanma harakat qildirish kabilar kiradi. Nemis tili talaffuzidagi barcha fonetik material ikki turkumga bo'linadi - maktabda o'rganish majburiy bo'lgan talaffuz birliklari va maktab sharoitida o'rganish shart bo'lmanagan talaffuz qoidalari. Majburiy talaffuz minimumi o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi, birinchi guruhda talaffuzini mashq qilish shart hisoblanadigan birliklar, ikkinchisi maxsus mashqlar talab qilmaydigan talaffuz birikmalari. Birinchi guruh birikmalari talaffuzni o'rgatish mazmunini tashkil etadi. Masalan: nemischa [ts] tovushi rus, o'zbek o'quvchilari uchun qiyin emas, chunki bu tovush ona tili talaffuz normasida yoki [dz] fonetik birligi o'zbek o'quvchilariga oson, ruslarga nihoyatda murakkab.

Fonetika - talaffuz demakdir. Talaffuzni bilmasdan turib, nemis tilini o'rganib bo'lmaydi. Talaffuz normalaridan ko'proqchetga chiqib ketish ham nutqning tushunarli bo'lmasligiga, og'zaki fikr almashishning buzilishiga olib keladi.

---

1. Климов Н.Д «Вводно-фонетический курс немецкого языка» Москва, Высшая школа 1990гг

2. Норп О.А., Адамова С..Д. «Фонетика современного немецкого языка» Москва :Высшая школа 1989

Nemis tili fonetik (talaffuz) minimumi leksika va grammatika minimumlariga bog'liq holda tanlanadi. Til materiali odatda aktiv va passiv minimumlardan iborat. Fonetika minimumida aktiv va passiv tushunchalari biroz boshqacharoq talqin etiladi.

Aktiv va passiv talaffuz minimumlari bir paytning o'zida o'rganiladi. Ular murakkab nutqiy malakaning tarkibiga kirib, og'zaki va idrok etib tushunish jihatlarida namoyon bo'ladi.

Aktiv va passiv talaffuz minimumlari quyidagicha farqlanadi: aktiv minimumda takribiylikka yo'l qo'yiladi, passivda esa bunday holga duch kelinmaydi. Talaffuzning aktiv minimumi doirasida chegaralangan fonetik material yuzasidan ish ko'rildi, passivda esa o'rganilayotgan nemis tilii fonemalarining variantlari ham uchraydi.

Tilning tovush sostavini diqqat bilan kuzatish, masalan fonemalarning yanada o'rganish uchun litsey va kollejda til o'rganish metodikasiga yo'l topa olish zarur.

Bu metodika uchun tovush tabiatini chuqr o'rganishdan ko'ra uning birmuncha soddalashtirilgan shakldagi tovush sostavini egallash muhimroqdir. Talaffuzni o'rganish nazariyasi va amaliyoti tekshirilganda quyidagi masalalarga to'xtalish zarurdir.

Eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarining nutq faoliyatining turlari bilan aloqasi;

Nutq malakalarini o'stirish prosessida talaffuzga o'rgatishning tutgan o'rni;

O'rta məktəb o'quvchilarining eshitib talaffuz qilish ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar;

Kollej, listey o'quvchilari uchun fonetik minimum muammosi;

Fonetik material ustida ishslash metodikasi.

Qiyin hisoblanadigan yangi tovush talaffuzining o'rgatilish quyidagi ta'limiylardan o'tadi.

O'qituvchi ijrosida nutq namunasining aytishi va o'quvchilar tomonidan eshitish bosqichi. O'quvchilar diqqati jumla mazmunini va undagi yangi so'zning ma'nosini tushunib olishga qaratiladi. Yangi tovushni o'qituvchi, avvalo, jumlada so'ngra so'zda aytadi, o'quvchilar tinglab idrok etishadi.

Fonetik birlikning yaxlit tarzda idrok etishdan, qismlarga bo'lib idrok etishga o'tiladi. Sintetik idrok etishdan analitik idrok etishga o'tiladi.

Ikkinci bosqich — tovushni ovoz chiqarib aytishga tayyorgarlik-uni ichki nutqda aytishni ta'minlaydi.

Eshitib idrok etish va ichda aytishdan ovoz chiqarib talaffuz qilishga o'tish bosqichi.

Yangi tovush namunasini o'qituvchi aytib ko'rsatadi, o'quvchilar birgalikda va yakka-yakka bo'lib takrorlaydilar.

Shunday qilib, tahlil va taqlid yo'li bilan yangi tovush o'rganiladi.

Yangi tovushni yangilari bilan biriktirib aytish bosqichi. Tovush o'rganilgan tovushlar bilan birikmalarda aytiladi. Imkon boricha unli va undosh birikmalari mashq qilinadi.

Yangi tovush so'zda aytildi. O'qituvchiga ibrat qilib o'quvchilar xor va yakka-yakka bo'lib talaffuz etadilar. Bu bosqich tovushning ma'no anglatish xususiyati (fonema) ni o'rgatishga bag'ishlangan.

Endi yangi tovush jumla tarkibida talaffuz etiladi. O'qituvchi boshlaydi, o'quvchilar taqlidan takrorlaydilar. So'zning tovush va ma'no ifodasi bevosita

jumlada shakllanadi. Bu bosqichda jumlalarni aytish — axborot almashish darajasida mashq qilish demakdir.

Yangi o'zlashtirilgan tovushni mustahkamlash bosqichi. Turli talaffuz sharoitida, ya'ni kichik va katta kontekstda, shuningdek, yolgiz so'zda va gapda bu tovush erkin qo'llaniladi.

O'quvchilar til tajribasida mavjud tovushlar bilan, yangi tovushni chalkashtirmasliklari uchun mashqlar bajarishlari lozim. Ona tili bilan qiyoslash va solishtirish yolgiz, so'zda va jumlada aytildigan tovushlar asosida mashq qilinadi.

Nutq tovushlari so'z ma'nosini ham morfologik formalarini ham belgilaydi, nutqning sintaktik tuzilishiga va uslubiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun muomalaning eng muhim shart-sharoitlaridan biri eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni eshitilayotgan tovushning o'ziga mos keluvchi tovushlarga aytildi. Eshitib talaffuz etishko'nikmalari nutq faoliyatida va uning asosiy turlarida ahamiyati borligi hech shubhasizdir.

Nutqning fonematik to'g'rilingining buzilishi, gapiruvchi tomonidan nutqning intonasiyasi jihatidan noto'gri talaffuz etilishi tinglovchida nutqni noto'g'ri tushunishiga olib keladi.

Masalan, lablangan [o:] lablanmagan unli [o:] bilan almashtirilishi nemis tilida aytilayotgan fikr ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Masalan:

Der Schüler kann schön schreiben.

Der Schüler kann schon schreiben.

Bu erda gap o'quvchining chiroyli yoza olishi ustida ketayapti. Unli bilan almashtirish natijasida «schon» deb talaffuz etilayapti va bu erda mantiqiy bog'liqlik mavjud emas.

Jumlaning noto'g'ri bo'linishi ham ma'no o'zgarishiga olib keladi.

Chunonchi, pauzalarning qo'yilishiga qarab quyidagi gaplarning ma'nosi o'zgaradi.

Inna, Monika und Lisa gehen in den Kindergarten.

Inna, Monika und Lisa gehen in den Kindergarten.

Birinchi gapda bolalar bog'chasiga uchta bolaning ketayotgani aytilgan, ikkinchi gapda gapirovchi Innaga murojaat qiladi va unga bog'chaga ikkita qiz bolaning ketayotgani xabar qilinadi.

Shu misollarning o'zi ham, garchi bularning sonini birmuncha ko'paytirish mumkin bo'lsada, gapirish vaqtida eshitib talaffuz etishning roli borligidan darak beradi, eshitib talaffuz etish ko'nikmalarini egallab olish o'quvchini o'qishga o'rgatishda ham muhim ahamiyatga egadir Nemis tili talaffuzi quyidagi maxsus prinsiplar asosida o'rgatiladi.<sup>3</sup>

Nemis tili va ona tili fonetik sistemalarning qiyosiy tahlili ma'lumotlaridan foydalanish. Nemis tilini o'rgana boshlagan o'quvchining til tajribasida puxta o'zlashtirilgan talaffuz ko'nikmasi yangi fonetik birikmalarni o'rganib olishga halaqit beradi. Qiyosiy tahlil nemis tilii va ona tili orasidagi tafovut va o'xshashlikni ohib berishga yordamlashadi.

---

<sup>3</sup>Норп О.А., Адамова С..Д. «Фонетика современного немецкого языка»Москва :Высшая школа1989

Nemis tilidagi talaffuzning harakat va eshitish timsollari bir paytning o'zida sodir bo'ladi. Ovoz chiqarib aytish eshitish analizatori tomonidan nazorat qilinadi.

Gapirishga qanday talablar qo'yilsa, ovoz chiqarib o'qishga ham shunday talablar qo'yiladi. O'qish jarayonida fonematik qoidalarning buzilishi qanday oqibatlarga olib kelsa, gapirish jaryonida ham xuddi shunday oqibatlarga olib keladi: tinglovchi o'qiyotgan kishini tushunmaydi.

Ovoz chiqarib o'qish bilan eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarining rivojlanishi o'rtasidagi bog'lanish muqarrardir.

Psixologiyadan shu narsa ma'lumki, ovoz chiqarmay o'qishning asosi og'zaki nutqni tashkil qiluvchi ichki nutq bilan bog'liqdir. Bunda og'zaki nutq qayta tuziladi va birmuncha soddalashadi. Uning yaxlit ma'noli sostavi yangi qisqa signallar bilan almashadir.

Bu qisqa almashgan signallar normativ bo'lmay, sub'ektiv xarakterga egaadir.

Bunday prosesslar ona tilida o'qish vaqtida ichki nutqqa taalluqlidir.

Nemis tiliidagi ichki nutqning ahvoli qanday? Taxmin qilib aytish mumkinki, bu malakani egallash qanchalik darajada past bo'lsa, past ovoz bilan o'qish xarakteri baland ovoz bilan o'qishga shunchalik yaqin bo'ladi.

Nemis tiliida past ovoz bilan o'qish jarayonidachki nutqda sub'ektiv signallar, o'qiyotgan kishining o'ziga o'zi ko'rsatma berish hollari sodir bo'lishi mumkinki, bular o'qituvchi e'tiboridan chetda qoladi. Bu ko'rsatmalar ona tili ta'sirida ro'y beradi.

Bu jihatdan qaraganda maxsus adabiyot o'qishni yaxshi egallab olgan kishilar til borasidagi o'z mahoratlarini og'zaki nuthda namoyish qila olmay, muvaffaqiyatsizlikka uchrashlari mumkinki, bu hammaga ma'lumdir. Shunday qilib past ovoz bilan o'qishning nemis tiliida eshitib talaffuz etish ko'nikmalarining

o'sishi bilan bog'liq bo'lмаган holda alohida rivojlanishi tilning kommunikativ rolini birmuncha cheklashga olib keladi, chunki bu nutq faoliyatining asosiy turlari o'rtasidagi bog'lanishni buzadi. Talaffuz ustida ishslash birdan-bir maqsad bo'lsada, u nemis tiliini o'rgatishning butun sistemasida majburiy element bo'lib hisoblanadi. Eshitib talaffuz qilish ko'nikmalari nutq namunalarini o'zlashtirish tijasida ro'y beradi. Har bir nutq namunasi talaffuz etish jarayonida o'zlashtiriladi.<sup>4</sup>

Talaffuz oldiga qo'yiladigan vazifa o'quvchilarni oddiy fikr almashish uchun zo'r berishdan ozod qilib, eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini avtomatlashtirishdan iborat.

Bevosita tushunib ovoz chiqarib o'qish eshitib talaffuz etish ko'nikmalarini o'stirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. Agar boshlang'ich bosqichda talaffuz sohasidagi vazifa eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini avtomatlashtirishdan iborat bo'lsa, o'rta bosqichda uning avtomatlashishiga yo'l qo'ymay mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

Shu narsa tabiiyki, nutq mazmuni og'zaki bo'lsa ham, yoinki yozma bo'lsa ham o'quvchilarning asosiy e'tiborini o'ziga jalg etib, o'rta bosqichda murakkablashadi.

Faraz qilish mumkinki, nemis tilii nutqida tajriba qanchalik ko'p bo'lsa, garchand unga alohida e'tibor berilmasa ham eshitib talaffuz qilish ko'nikmalari shunchalik mustahkam bo'ladi.

Agar o'rta maktabda ancha o'rganishgan deb kollej va lieseylarda o'qituvchi talaffuzga alohida e'tibor bermay qo'ysa, bunda o'quvchilarning nemischa talaffuzi sifati buziladi albatta.

Agar til o'rgatishning boshlanishida o'quvchilarning diqqati bayon etilgan fikrning mazmuni va formasiga monand taqsimlansa, grammatik komponentlar

---

4.Миролюбова А.А.,Ларахиной А.В. «Общая методика преподавания иностранных языков»Москва 1987г.

o'quvchining diqqatini to'liq jalb etadi, talaffuz esa e'tibordan chetda qoladi. O'quvchilarning ona tili ta'siri kuchga kiradi, tarkib topgan ko'nikmalarining interferensiyasi (chalkashtirib yuborilishi boshlanadi).

Agar boshlang'ich bosqichda eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ustida intensiv ish olib borish o'quvchilarning butun nutq faoliyatini oshirishning majburiy elementi bo'lsa, o'rta bosqichda eshitib talaffuz etishga darsning ayrim jihatlari ajratilib, fonetik mashgulotlar o'tkaziladi.

Bunda o'quvchilarning nutq faoliyatlaridagi ayrim bo'laklarni mashq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni uning lablari, jag'i va tili qay holatda va talaffuz etayotganda uning og'zidan havo qanday kuch bilan chiqishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir tovushni to'g'ri va aniq talaffuz etmoq uchun so'zlovchi nutq apparatining qay tarzda boshqarishini bilmog'i lozim. Masalan: nemis tilida xamma qiska unlilar kuchli qaytish (der feste Absatz) bilan talaffuz qilinadi va tovush bog'ichlari (pardalari) talaffuz oxirida bo'shashmaydi va keyinda turgan undosh o'zidan oldin turgan undosh tovushga qo'shilib ketadi.

Masalan: [kan] Bett [bet] va hokazo.

Hamma cho'ziq unlilar esa kuchsiz qaytish (der lose Absatz) bilan talaffuz etilib, tovush bog'ichlari (pardalari) talaffuz oxirida bo'shashmaydi va keyinda turgan undosh o'zidan oldin turgan unli tovushga birdaniga qo'shilib ketmaydi. Masalan: [ge:ben] [di: fa:rt].

Nemis tilini o'rganishda o'zbek tilida bo'limgan tovushlar bu tilda mavjudligini unutmasligimiz kerak. O'zbek tilida esa nemis tilida mavjud bo'limgan tovushlar bor.

Mana shuning uchun xam nemis tilini o'rganish uning tovushlarini bilib olishdan boshlanishi zarurdir.

Ba'zi bir litsey va kollej o'qituvchilari mактабда о'ргатиlgan talaffuz normalariga cheklangan holda, yana talaffuz yuzasidan ish olib borish zaruratini etarli baholamaydilar. Natijada vaqtни tejash maqsadida o'quvchilarning fonetik xatolarini sezsalarda, uni to'g'irlamay qoldiradilar.

Maktablardalarda nemis tiliini o'qitishni nimadan boshlamoqkerak?

Bu hozirgi zamon metodikasida eng muhim masala bo'lib, o'qitishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning to'g'ri taqsimlanishining hal etilishiga bog'liqdir.

Ayrim o'qituvchilar o'qitishni og'zaki nutq ustida ishlash, o'qish va yozishni bir vaqtning o'zida kompleks boshlaydilar. Boshqalar esa fonetika kursidan boshlab shu orqali o'quvchilarni o'rganilayotgan tilining tovush sistemasi bilan tanishtirishni, to'g'ri talaffuz asoslarini vujudga keltirishni, og'zaki nutqning dastlabki elementar masalalarini yaratishni istaydilar. So'ngra esa o'qish va yozish darslariga o'tadilar. Metodistlar talaffuz til o'qitishning eng muhim aspektlaridan biri deb hisoblaydilar. Shunday ekan, to'g'ri talaffuzga o'rganmay turib, muayyan tilda to'g'ri «so'zlashish» mumkin emasligi to'g'risida to'xtalib o'tirishning hojati yo'q. To'g'ri talaffuzga o'rgatishdagi qiyinchiliklardan biri - tovush va harf tushunchalarini chalkashtirib yuborilishidir.

Nemischa talaffuzda har bir harf alohida tovush bilin talaffuz etilishi va alohida transkripsion belgisiga ega ekanligiga e'tibor berish lozim. Tovushning talaffuzida ishtirok etuvchi apparatning holatiga e'tibor berish lozim. Bunday hollarda ona tilining ta'siri muqarrar ravishda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarga ona tili va nemis tilining tovush tarkibi o'xshashdek tuyuladi. Ular bunga o'rgana borib, nemis tili tovushlarining to'g'ri artikulyasiyasini buzadilar (nutq organlarining ishi). Bu esa nutq ma'nosining keskin buzilishiga olib keladi.

O'qituvchi to'g'ri talaffuzga o'rgatar ekan, o'quvchilarga fonetika sohasida mustahkam o'zlashtirib olishlari lozim bo'lgan tushunchalarning muayyan tizimini berishi kerak. O'quvchilar toki talaffuz normasini mustahkam bilmas ekanlar, to'g'ri o'qish va gapirishga o'rgana olmaydilar.

Ayrim hollarda aytilishi lozim bo'lgan jumlaning ma'no jihatdan mazmuni ayrim so'zlarda, ayniqsa tovushlardan keladigan ma'lumotni ma'no jihatdan bog'langan jumla strukturasiga qarab aniqlash mumkin.

Agarda: *Am Tisch steht ein Stuhl.* jumlasida *Tisch* so'zidagi [t] tovushini yanglishib [f] tovush bilan almashtirilsa, har holda jumlaga tushunish mumkin. Chunki, ot oldida qo'llanilayotgan «*am*» predlogining mavjudligi jumladan *Tisch* so'zi bilan yaqin bo'lgan *Stuhl* so'zining qo'llanilishi va natijada predmetning holatini xarakterlab beruvchi «*stehen*» so'zining qo'llanilishi shuningdek, bu jumla talaffuz etilgan paytdagi situasiya ham xatoni to'ldirishi va to'g'ri talaffuz etilishi so'zning to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi. Nemis tiliini o'rganish mobaynida o'rganilayotgan tilni ona tiliniki singari talaffuz qilinishi o'quvchilarga xos bo'lgan odatdir. Bu odatni fonemalarga nisbatan ishlatishga yo'l qo'yemaslik kerak.

Og'zaki nutqni o'rganish alohida ahamiyatga molik bo'lgan bir paytda intonasiyaga qo'yiladigan talablarga ham to'xtalib o'tishimiz lozim. Ba'zi hollarda jumlanı to'g'ri intonasiya bilan talaffuz etilishiga e'tiborberilmaydi. Natijada boshqa holatlarni maydalab tushuntirgan bir holatda nutq imkoniyatlarni o'quvchilarda o'rgatishda cheklanishga yo'l qo'yiladi.

Intonasiya til materialida amalga oshiriladi, u faqat shu til materialida ifodalangan ma'noni oydinlashtiradi, shuning uchun intonasiya ba'zi hollarda qo'shimcha vosita hisoblanadi.

Intonasiya tilning og'zaki shakliga xos hodisa bo'lib, u muayyan funksiyalarni bajarganligi uchun til birligi hisoblanadi. Intonasiya quyidagi sintaktik funksiyalarni bajaradi:

Fikrning tugallangan yoki tugallanmaganligini bildiradi.

Gapning kommunikativ tiplarini bir-biridan farq qiladi.

Bunda quyidagi intonasiya oppozisiyalarini farqlash mumkin: darak gap-so'roq gap; so'rok gap - undov gap; darak gap — undov gap va h.k.

Intonasiya quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

ohang;gap urg'usi; pauzalar;ritm (sur'at).

Ohang odatda fikrning tugallangan yoki tugallanmaganligi bildiradi, gapning kommunikativ tiplarini bir-biridan farqlash uchun qo'llaniladi.

Gap urg'usi ran va matnning boshqa qismlarini intonasiya jihatdan tashkil qilish (qismlarga bo'lish va ularni birlashtirish) uchun xizmat qiladi.

Pauzalar, ya'ni nutqdagi turlicha bo'lib, sintagmatik, katta pauza, psixologik pauza va x.k. Ular nutqni to'g'ri bo'lish va ma'no jihatdan bog'lash uchun katta ahamiyatga egadir. Pauza qaerda kelishiga qarab gapdagi mazmunga ta'sir qilishi mumkin. Masalan: *Ich gab das Buch der Schwester meiner Frau* gapi pauzaning qaerda kelishiga qarab turli ma'noga ega bo'ladi.

Rasmiy xabar sekinroq, norasmiy suhbat tezroq aytildi, bu sur'atni belgilaydi. Ritm noto'g'ri bo'lsa nutq va uning intonasiyasiga tushunish qiyin bo'ladi. Demak, ritm matning shakli va mazmunini to'g'ri idrok qilish uchun zarurdir.

Tembr - muhim ifoda vositasi bo'lib, u birinchi navbatda bizning his-hayajonlarimizni ifodalaydi.

Talaffuz qilishni o'rgatishda asosiy vazifa o'quvchilarning nutq tinglash qobiliyatini o'stirishdir, bu esa eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

shartidir. Takrorlash prosessida o'quvchilar o'z talaffuzlarini nutq namunasida o'xshatishga harakat qiladilar. Ammo, ularning bu harakatlarida dastlab xatolar bo'lib turadi. Ammo, bu xatolarni imitasiya (taklid kilish, ya'ni o'xshatib talaffuz qilish) bosqichlari o'rtasida doimiy harakat qiluvchi ikki tomonlama aloqani talab qiluvchi ko'p marotaba qayta takrorlash natijasida o'quvchilar xatolarini bartaraf qilishlari mumkin. Artikulyasiya usullarini maqsadga muvofiq ravishda tushuntirish, akustik taasurotlarni analiz qilish yo'li bilangina talaffuzda uchragan xatolardan holi bo'lish mumkin.

Biroq murakkab tovushlarni talaffuz qilish zarur bo'lgan nutq organlarining harakatini bir marta ko'rsatib berish va o'quvchi ularni qayta-qayta takrorlab turishi orqaligina maqsadga erishish mumkin.

O'quvchilarning talaffuzidagi xatolari psixologlarning e'tirof qilishicha «Ko'nikma hosil qilishda o'rgatishning yagona va tabiiy xolati bo'lib, ular ijobiy ahamiyatga egadir». Masalan: o'quvchilar uchun katta qiyinchilik bilan talaffuzqilinadigan «schon» so'zidagi [o:] va [n] tovushlarining artikulyasiyasini tushuntirish shu so'zning to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi. Bundan tashqari ular tovushlarni yumshoq talaffuz qilishga odatlanib qolishgan. O'quvchilar navbatma-navbat tinglash, ko'p marta talaffuz qilish orqaligina o'z talaffuzlarini yaqinlashtiradilar.<sup>5</sup>

Nutq namunalari doirasida talaffuz ustida ish olib borilsa quyidagi ikki yo'l orqali tushuntiriladi:

- a) Agar namunada qiyin tovush bo'lsa, bu tovush o'quvchilar tomonidan namunali talaffuz qilingach va o'quvchilar bu tovushni yaxshi anglab olganlaridan keyingina namunadan ajratib olinadi. Ajratib olingandan so'ng tovush analiz qilinadi, ya'ni artikulyasiya qoidalari bilan taqlid qilish asosida jiddiy mashq

qilinadi va boshqa tovushlar bilan qo'shiladi, so'ngra yana namunaga quyiladi va keyin namuna sifatida mashq qilinadi.

b) Agar yangi tovush qiyin talaffuz qilinadigan tovushlar qatoriga kirmasa, uni namunadan ajratib olinadi, o'quvchilar bu tovushni nutqda qo'llash, taqlid qilish yo'li bilan o'zlashtiradilar.

Talaffuz qilishni nutq namunasi doirasida o'zlashtirishga harakat qilish eng samarali yo'ldir, chunki bu yo'l til talaffuzining nutq faoliyatida o'ynaydigan roliga mos keladi. O'quvchilar to'g'ri gapirish va boshka kishilarning nutqini tushunishlari uchun tovushlarni to'g'ri talaffuz qila bilishlari kerakligini yaxshi biladilar.

Nemis tili talaffuziga o'rgatishda ko'rgazmalilik prinsipi juda katta rol uynaydi. Bu prinsip o'quvchilarning sezgisi, ko'rish va eshitishiga tayanadi.

Shunga asosan ko'rgazmalilikning sezish yoki eshitishga asoslangan bir-biridan farq qiluvchi turlari mavjud.<sup>6</sup>

Ko'rgazmalilik prinsipi nemis tililar o'qitishda munosib o'rinni egallaydi. Ko'rgazmalilik ayrim o'quv predmetlarida faqat ko'rish bilan assosiasiyaga (bog'lanish) kiradi. Nemis tilida ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok etiladigan ashki va ichki ko'rgazmalilik tushuniladi. Til materialini tushunish o'zlashtirish va qo'llash maqsadlarining ro'yobga chiqarish uni maxsus namoyish etish va nutqda qo'llash ko'rgazmalilik yordamida amalga oshiriladi. O'quvchi ona tilini tabiiy predmet va hodisalar og'ushida o'rganishi, nemis tilini egallah esa sun'iy sharoitda kechishi tufayli bunda ko'rgazmalilikning zarurligi yanada oshadi.

Masalan: Die Schule , die Tasche , der Mann.

So'zlarining ma'nosini va ularning grammatik formasini, ya'ni ot so'z turkumiga kirishi va ularning rodi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.

---

<sup>6</sup>.Миролюбова А.А.,Ларахиной А.В. «Общая методика преподавания иностранных языков»Москва 1987г

b) Bu narsa eshitganni takrorlash mobaynida andoza rolini bajaradi.

O'zini tinglash mashqlarini ko'rib chiqamiz.

Tinglash aktiv tarzda bo'lishi kerak, shuning uchun tinglash mashqlarini o'quvchilarning erkin diqqatini mazkur fonetik hodisaga jalg etuvchi aniq vazifalar bilan birga qo'shib olib borish kerak. Shu maqsadda o'rganilayotgan hodisalarni farqlashga qaratilgan quyidagi mashqlar tavsiya etilishi mumkin:

Bir qator so'zlarni tinglang va tarkibida yangi tovush bo'lgan so'z talaffuz qilinganda qo'lingizni ko'taring.

Bir qator gaplarni tinglang va darak (so'rok, undov) gaplar talaffuz qilinganda qo'lingizni ko'taring.

Bir kator tovushlarni tinglang va yangi tovush talaffuz etilganda qo'lingizni ko'taring.

Kontekst jihatdan o'zaro bog'langan tekstni tinglang va ma'no jixatidan mos kelamydigan gapni ajratib ko'rsating. Bu mashq fonologik qarama -qarshilikni aniqlashga asoslanadi. Bog'langan tekstga ma'no jihatidan mos kelmaydigan so'zlar kiritiladi.

Mazkur mashq faqat tovushni tanib olishga emas, balki bog'langan nutqni yaxlit tushunib olishga ham katta talablar qo'yadi.

Aytib o'tilgan mashq turlari uchun dastlab materialni o'qituvchi talaffuz qilishi mumkin. Agar shunday bo'lganda, uning nutq organlari ma'lum artikulyasiya, shuningdek, mimikasi va ko'p harakatlari o'quvchilarga tovushlarni tanib olishga yordam beradi, yoki o'quvchilar aynan shu mashqni kompyutre orqali eshitishlari mumkin.

Mashqlarning navbatdagi turi bir muncha murakkab bo'lib, o'quvchilar uni bajarish davrida ko'rish tayanchiga ega bo'lmaydilar.

O'z-o'zini tinglash borasidagi fonetik mashg'ulotlar uncha ko'p emas, ular o'qitish prosessida kichik o'rinni egallaydi, eshitib takrorlashga esa ancha ko'prok o'rin ajratiladi. Bu mashqlarni bajarish prosessida o'quvchilar o'zlarining aytganlarini namunadagiga qaragan xolda taqqoslab ko'rib, xatolardan xoli bo'la boshlab, sinov mashqlarini bajaradilar. Psixolog Z.I. Xodjaeva tomonidan tavsiya etilgan mashqlar klassifikasiyasi shu grupperda mashqlari uchun foydalanishda maqsadga muvofiqdir. Psixolog ko'nikma hosil qilishga qaratilgan mashqlarni quyidagicha ajratishni tavsiya qiladi:) Ko'nikma hosil qilishga va takomillashtirishga imkon beruvchi o'quv mashqlari;) Hosil qilingan ko'nikmalarni saqlashga qaratilgan mashqlar. Ushbu klassifikasiyaga asoslangan holda fonetik mashqlar turini bir oz qarab chiqamiz. O'quv mashqlari uchun so'zlar, so'z birikmalarini,

O'qituvchining o'zi yoki magnitofon yordamida o'quvchilarga namuna bo'ladi, o'quvchilar xor bo'lib, so'ngra esa yakka-yakka tarzda takrorlaydilar.

Bunday tipdaggi mashqlarda namuna katta rol o'ynashini iboralar material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'quv mashqlari quyidagicha bajariladi:

ta'kidlab o'tish kerak.

Maktab tajribasida o'quvchilarning namunani tinglamasdan takrorlashga juda tez o'tishini kuzatish mumkinki, bu narsa esda saqlash sifatida salbiy ta'sir qiladi.

Mashqlarning bu turida aktiv tinglash va tovushlarni maqsadga muvofiq ravishda idrok etish juda muhim ahamiyatga egadir.

Shu boisdan mazkur mashqlarni bajarishdan avval mana bunga o'xshash ko'rsatmalar berish kerak:

- so'zlarni tinglang, ularni takrorlang;
- unlilarning cho'ziqligiga e'tibor bering,

shunga o'xshash yo'llanmalar xususan ovozli darslik yaratishdagi birinchi tajriba bulgan F.K.Emixning «Magnitofon bilan bajariladigan mashqlar to'plami»ning barcha mashqlarida berilgan tovushlarni taqqoslash orqali ularning sifatini ajratib ko'rsatadigan mashqlar alohida ahamiyatga egadir.

Mashqlarning bu gruppasiga o'qituvchi aytadigan so'zlarga qofiyadosh so'zlarni topish mashqlari ham kiradi. Ammo, bunga o'xshash mashqlarga berilib ketish boshlang'ich bosqichdagi lug'at minimumi doirasidan chiqib ketishga va shusababli bu bosqichdagi o'quvchilar uchun ma'noga ega bo'limgan so'zlarning kirib qolishiga sabab bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, o'quv mashqlari sifatida semantik umumiyligi bilan xarakterlanadigan

Vater - Mutter

Sohn-Tochter

Bruder-Schwester

Stuhl-Tisch

tipidagi mashqlardan foydalanish kerak.

Urg'uli unlining sifati esa qarama-qarshidir. Bu xildagi bir turdag'i mashqni tashkil qiluvchi so'zlar o'quvchilarning elementar nutqida qo'llaniladi.

Bu so'zlar deyarli har bir matndan ajratib olinishi va fonetik mashqlarga kiritilishi mumkin.

Mashqlarning ikkinchi gruppasini ta'riflashga o'tamiz.

Mashqlarning bu turiga eng qiyin tovushlar va intonasiya hodisalariga ega bo'lgan fonetik mashqlarning turli shakllari kiradi. Bu turga shuningdek, xilma-xil nutq mashqlari oldidan bajariladigan tayyorgarlik mashqlarini ham kiritish mumkin. Bu mashqlar xatoning oldini olishga yordam beradi, chunki ularga o'quvchilar kelgusi nutq faoliyatida (og'zaki nutq va o'qishda) qo'llanishi kerak bo'lgan fonetik hodisalar qatoriga kiradi.

Xullas, she'rlarni, sanoqqa oid mashqlarni, qisqa dialoglarni, katta bo'limgan ravon hikoyalarni yod olish va talaffuz etish kabilar mashqlarning bu turiga kiradi.

Barcha fonetik mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning xor bo'lib ishlashi katta rol o'yнaydi.

Xor bo'lib ishslash talaffuzga o'rgatishda juda samarali natija beradi, chunki u barcha sinf o'quvchilari tomonidan ayni bir vaqtda yangi artikulyasiya ko'nikmalari ustida borib, ularning hammasini fonetik hodisalarni qayta takrorlashga undaydi. Bundan tashqari, xor bo'lib ishslashda tovushning xususiyati aniq sezilishi sababli bu ish eshitish ko'rgazmaliligining muhim vositasidir. Bu ish yaxshi tashkil etilishi kerak. Xor paytida har bir o'quvchi o'rtacha ovozda, lekin juda aniq gapirishi kerakligini bilish kerak.

Xor paytida yangi tovush yoki so'z aytiladi, o'qituvchiga taqlid qilib o'quvchilar xor va yakka-yakka bo'lib talaffuz qiladilar. Mabodo so'zda ikkita yangi tovush bo'lsa, ulardan biri avval puxta o'zlashtiriladi, so'ngra ikkinchisi aytiladi.

Masalan, unlilarning cho'ziq yoki qisqa aytilishiga misol keltirsak, ularning nemis tilidagi talaffuzi so'zlarning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. O'qituvchi buni alohida ta'kidlab, ibrat tarzida to'g'ri talaffuz qiladi va o'quvchilar takrorlaydilar.

Masalan:

Beet (jo'yak) - Bett (karavot)

Ofen (pechka) - Offen (ochiq)

Staat (davlat) - Stadt (shahar)

Miete (ijara haqi) - Mitte (o'rta) va hokazo.

Gapirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida

Til ko'nikmalaridan biri gapirish ko'nikmasi ham til o'rganishda asosiy rol o'ynab u sekin rivojlanadigan ko'nikma hisoblanadi.<sup>7</sup>

O'quvchi boshqalarning fikrini bevosita va juda tez anglab olishi darkor. Gapirish ko'nikmasida ham tinglash ko'nikmasi kabi ikki xil faollik farqlanadi.

- a) bevosita yuzma –yuz (face to face) suhbat
- b) bilvosita suhbat (telefonda)<sup>8</sup>

Chet tili darsida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun yuqorida keltirilgan asoslar muhim hisoblanadi va ularning maqsadi o'quvchini erkin fikrlashga, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lган mavzularda suhbatga kirisha olishga, suhbatdoshiga aniq, tushunarli, sekin va ravon gapirishga, parafrazalardan foydalanib fikrini bayon qila olishga undashdir.

Umum Yevropa Standartlari bo'yicha gapirish ko'nikmasi yana ikkita ko'nikmaga ajratiladi:

- a) dialog asosidagi suhbat (juft nutq)
- b) monolog asosida gapirish (yakka nutq)

<sup>7</sup>Ursula Bader/Ursula Schaeer, Umsetzungshilfe zum Lehrplan, Abteilung Volksschule Aarau 2008 S 8

<sup>8</sup> KAST, B., NEUNER, G.: Zur Analyse, Begutachtung und Entwicklung von Lehrwerken für den fremdsprachlichen Deutschunterricht, Langenscheidt KG, Berlin und München 1994, S. 54

Bu ikkala tur shunisi bilan farq qiladiki, dialog monologga qaraganda kam davom etadi.

Gapirish ko'nikmasini rivojlantirishining birinchi bosqichida o'quvchi o'zi, oilasi va shu bilan birgalikda sevimli hayvonlari to'g'risida bat afsil ma'lumot bera olishi kerak<sup>9</sup>.

Boshlang'ich va o'rta darajadagi til o'rganuvchi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Sodda savollarga javob bera olishi, suhbatlarda faol ishtirok eta olishi va matnga fikr bildira olishi kerak.

O'qituvchidan suhbat jarayonini kuzatish va o'quvchini suhbatga olib kirishi talab qilinadi. Oddiy suhbatlarda ishtirok etish uchun salomlashish, o'zini tanishtirish, bir to'xtamga kelish yoki taklifni ifodalaydigan so'z va so'z birikmalarini qo'llay olishi talab qilinadi. Ushbu talablar mujassam etgan o'quv adabiyotlari va darsliklarga murojaat qilamiz.

- Yuqorida keltirilgan talablar o'quv adabiyotlari va darslaklarda mavjudmi? Qaysilari mavjud? Qaysilari mavjud emas?

- Muloqot jarayoniga kirishish uchun so'z va iboralr ilova qilinganmi?

Gapirish ko'nikmasiga moslashtirilgan mashqlar muloqotga tayyorlashi kerak. Gapirish ko'nikmasiga moslashtirilgan mashqlar o'quvchida qiziqish uyg'otishi va bu mashqlar orqali ular suhbatdoshiga bilmaganlarini xabardor qilishga xarakat qilishlari ko'zda tutiladi.

O'quvchilarni gapirishda verbal va nonverbal vositalardan ham foydalanishadi. Masalan bunga har-xil shovqinlar, videolar, rasmlar yoki rasmli hikoyalar asosiy rol o'ynaydi.

Til o'rganishni boshlovchilar uchun subatga kirishishda so'z va so'z birikmalaridan yozma ravishda foydalanish uchun vaqt ajratiladi.

Dialog o'quvchilarda og'zaki nutqni o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarga juft-nutqning quyidagi turlarini o'rgatish tavsiya etiladi:

---

<sup>9</sup>Ursula Bader/Ursula Schaer, Umsetzungshilfe zum Lehrplan, Abteilung Volksschule Aarau 2008 S 10

1. Axborot almashish maqsadidagi juftnutq.
2. Reja-juftnutq (birga faoliyat ko'rsatishni moi jallaydigan juftnutq).
3. Munozara-juftnutq. Fikrbayonetishbo'yichajuftnutq.

Ularningharqaysisisususiytilmaterialinitaqozoetadihamdaturlita'limbosqichlarigate gishlibo'lishimumkin.

Adabiyotlardagidialoggamoslashtirilganmashqlardao'quvchidanintuitivbilimt alabqilinadi. Bumashqlaro'quvchinierkinmuloqotqilishgaundashiko'zdatutilgan.

Yakkanutqda fikrnibayonetishda alohidaso'z-dantortib, tomatngachabo'l gannutqiy materialdan foydalani ladi. (Mas., "Ismingnima?" deganda, alohidaaytilgano'sz (ism) javob replikasıdır.) Juftnutq situativ hisoblansa, yakkanutqmavzuyuzasidangapirish, demakdir.

### **1.3. Gapirish nutq faoliyatining turi va malaka sifatida**

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida og'zaki fikr bayon etish demakdir. Bu jarayonni bldiruvchi ta'rifdir. Gapirishning psixologik mazmuniga kelganda, uning hosilasi tarzida fikr (mulohaza) ifodalishi qayd etish zarur. (Mazkur atamani nemischa *Aussage* deb yuritiladi.) Soddarоq qilib gapirish metodik tushunchasi qamroviga (1) fikr bayon etish jarayoni, (2) aytish, (3) og'zaki muloqot (4) fikr izhori natijasini kiritish mumkin. Gapirish oqibatida fikr aytildi, ushbu fikrni bayon etish niyati (ichki turkisi) esa gapirishga sabab bo'ladi. Savolga berilgan qisqa javob ham, butun bir monolog fikr bayoni hisoblanadi. Nemis tili o'qitishda yaqin paytlargacha gapirish o'rniga "og'zaki nutq" hatto nutq atamalari qo'llanilib kelingan. (nutq tilshunoslik lug'atlarida nemischa *Rede*, *Sprechen* so'zlari orqali ifodalangan. Ona tilida hozir ham nutqni o'stirish deyiladi.

Nemis tili o'qitish ruxshunoslarning nazariy umumlashmalariga ko'ra nutq muloqot jarayoni emas, gapirish ham emas, nutq – gapirish yanglig' faoliyat chog'ida fikrning ro'yobga chiqish va ifoda qilish usulidir.

Gapirish biror fikrni izhor etish maqsadida tuyyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Avval o'yla, keyin so'yla deyilishi bejiz

emas. O'yla qismida fikr paydo bo'lish, so'ylada esa uni nutq harakat sezgisi analizatori orqali bayon etish tomonlari nazarda tutiladi. Birinchisi til materialining qo'llanishidir, ular leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalari deyiladi, ikkinchisi – fikr aytish jihatiga gapirish malakasi nomi bilan yuritiladi.

Gapirishning g'oyat mukammal darajada bo'lishi spontan (o'z o'zida beixtiyor sodir bo'ladi) nutq nomini olgan. Bir so'z bilan ifodalanganda "erkin nutq" deyilgani ma'qul. Erkin nutqqa yaqin turadigan javob nutqini ham eslatish joizdir. O'zga shaxs nutqiga ergashib gapirilganda uni taqlidiy (imitativ) nutq nomi deb ataladi. Nutqiy matnning biror parchasini aniq tushunmagan holda aytish assosiyativ yoki fikrsiz nutq sifatida namoyon bo'ladi. Afsuski, u amaliyotda ko'p uchraydi.

Gapiruvchi xotirada tayyor turgan so'zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Binobarin interferensiya paydo bo'ladi (masalan nemis tilii va ona tilidagi so'z tartibi bunga yaqqol misoldir). Nutqning sodir bo'lishiga doir ilmiy muammolar zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlarda A. A. Leontov, I. A. Zemnayya va boshqalarning asarlarida batafsil yoritilgan.

Nemis tiliida monolog va dialogni o'rgatish o'quv dasturining asosiy talabidir.

Binobarin ikkala shakldagi nutqning o'ziga xos tomonlarini o'qituvchi bilishi kerak.

Masalan, monolog uchun to'liq qisqarmagan jumlalar va ularning nisbatan uzluksiz tizimlarini qo'llash ahamiyatli bo'lsa dialogda tayyor jumlalar ellips (qisqargan)gaplar ko'proq ishlataladi. Ona tili va nemis tiliidagi hodisalarning qiyosiy tahlili ham hisobga olinadi.

Muayyan nutqiy mexanizmlar tarkib topganidagina nemis tilida gapirishni o'rghanishga erishiladi.

Gapirihning psixofiziologik mexanizmlaribarcha nutq faolyati turlarida bo'lganidek,gapirishning ham o'ziga xos mexanizmlari bor.

Gapirish amaliga oshishi uchun o'quvchilarda qator psixofiziologik mexanizmlar shakllangan bo'lisi kerak (ular to'g'risida E.I.Passov malumot bergen)shunday mexanizmlar haqida muxtasar mulohazalar keltiriladi.

### 1.Reproduksiya mexanizmi.

Nutq jarayonida bazi elementlar tayyor holda qo'llansa ayrimlari yangidan yaratiladi.

Nutqni mukammal egallagan gapiruvchi rekurrent (takrorlanadigan) elementlarni kamroq ishlatadi,bo'sh gapiradiganlar esa rekurrent vositalarini kamroq qo'llaydi.

Reproduksiya 3 xil ko'rinishda bo'ladi.

1)Jumla va mazmunni o'zgarishsiz reproduksiya qayta qo'llash to'liq reproduksiya qayta qo'llash)odati mavjud.(to'liq reproduksiya-o'rganilgani o'zgartirmay aytish).

2.Matndan o'zgarishsiz olingan jumlalar yordamida mazmunni aytish qisman reproduksiya,,Rekurent-takrorlanadigan,Tokkazional-tasodifiy til hodisasi

2)Mazmunni yangi jumlalarda ifodalash (reproduksiya-transformasiya).

### 2.Tanlov mexanizmi.

So'zlarni hamda nutq namunalarini saylab aytishning farqiga borish kerak.

So'zlarni tanlab aytishda,assosiativ aloqalar shakllanganligiga qarab ularni xotirada tiklash bobida uning muayyan nutq vaziyatidagi vazifasi va muloqot maqsadiga ko'ra assosiasiyaga kirishini bilish zarur.

### 3.Birlashtirish mexanizmi.

Gapiruvchi so'zlar va gaplarni biriktirish jarayonida oldingi til tajribasida uchratmagan yangi birikmalar nishakllantiradi. Bunda jumladan yirikroq nutq birliklari mavzu va ularning bir nechtasi yig'indisi bo'lishi ham mumkin. Birlashtirib birligi qilib so'z, sintagma, jumla belgilangan so'z birikmalarini alohida e'tibor berib o'rgatish zarur, chunki jiddiy qiyinchiliklar shu hodisada

yuz beradi. Oldingi ikki mexanizmi amaliy ushbu birlashtirish jarayoniga ko'p tomondan bog'liq.

Yaratish qobiliyatiga ko'ra nutq mahsuli (matn) yuzagakeladi. Binobarin, birlashtirish mashqlari nutqiy yo'nalgan bo'lishi kerak.

#### 4.Tuzish mexanizmi.

Gapirishni malaka maqomida egallagan o'quvchi fikrni bayon etishda qoidaga suyanmay nutqiy faoliyat yuritadi. Keng miqyosida yoki qisqartirilgan ma'lumotdan foydalanish malakaning rivojlanish darjasini bilan o'lchanadi.

Tilni his etish zaminida shakllangan mavhum qolipga o'xshatish yo'li bilan, lingvistik nazariyani eslamagan holda nutqiy mahsulotni tuzish operatsiyalari bajariladi.

#### 5.Oldindan sezish mexanizmi.

Ravon gapirish uchun nutq oqimida nimani aytishni oldindan sezib borish, uni davom ettirishga tayyor turish zaruriyati tug'iladi.

6.Diskursivlik mexanizmi. Agar oldindan fahmlab borish yo'li bilan nutqni tayyorlashga erishilsa diskursiviylit(anglab gapirish) yordamida gapirishning uzluksiz borishi jarayoni boshqariladi, gapiruvchining nutqiy taktikasi va strategiyasi amalga oshiriladi. Bu mexanizm mantiqiy fikrlashga asoslangan bo'lib o'quvchi undan foydalanganda, ongli holda nutqiy vaziyatni chamalaydi suhbatdoshi fikrini to'g'ri idrok etib va uning noverbal muomilasini (masalan, hatti-

harakatini)ham ilg'ab unga munosib javob qaytaradi,gapirish mohiyati va vaziyatiga oid bilimlarni ishga soladi vah.k.

Ushbu mexanizm ishida ona tilidagi amallar doimo yordam beravermaydi.

Demak, diskursiv (anglab)gapirishga yetarli mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Gapirishning psixofiziologik mexanizmlari amalini bilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Gapirishda talaffuzni o'rgatish mazmuni o'rganilayotgan nemis tili talaffuzidagi barcha fonetik material ikki turkumga bo'linadi-maktab sharoitida o'raganish shart bo'limgan talaffuz hodisalari.Majburiy talaffuz minimumi o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi birinchi guruhda talaffuzni mashq qilish shart hisoblanadigan birliklar ikkinchisi-maxsus mashqlar talab qilinmaydigan talaffuz birliklari.Birinchi guruh birliklari talaffuzni o'rgatish mazmunini tashkil etadi.Masalan nemischa[S]tovushi rus, tojik va o'zbek o'quvchilariga uchun qiyin emas,chunki bu tovush ona tili talaffuz normasiga,demak o'quvchi lisoniy tajribasida mavjud hodisa,qozoq o'quvchilariga uchun juda qiyin birlik,chunki ularning ona tili talaffuziga u yet hodisadir.

Yoki [dʒ]fonetik birligi o'zbek,tojik o'quvchilariga oson,ruslarga nihoyatda murakkab.

Nemis tili metodikasi ilmida talaffuz qiyinchiliklarining turlari quyidagicha tasniflashtirilgan.

1.Tovushning alohida talaffuzida ro'y beradigan artikulyatsion qiyinchiliklari.

2.Agar ikki tovush yoki tovush birikmasi bir-biri bilan muqobil assosiasiya qo'zg'asa chalkashtirilsa (mas.cho'ziq va qisqa,jarngli)unday holda oppozitsion qiyinchiliklar yuz beradi.

3.Tovushlar so'z boshida (Anlaut),o'rtasida (Inlaut)va oxirida (Auslaut)yoki bit-biriga yondosh kelganda muayyan talaffuz murakkabligi-pozision qiyinchiliklar haqida gap boradi.Mas. o'zbek o'quvchilariga so'z oxiri va boshidagi qator (ikki va undan ortiq yonma-yon)undoshlar g'oyat qiyin hisoblanadi.

4.Tovushlarni tinglab idrok etish chog'ida ularni farqlash bo'yicha qiyinchiliklar sodir bo'ladi,ular akustik qiyinchiliklar nomini olgan.

## **II. BOB.NEMIS TILI FONETIKASINING O'ZIGA XOS TOMONLARI VA UNI O'RGATISHDA QO'YILADIGAN TALABLAR**

### **2.1.Nemischa unli va undoshlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularningo'zbekcha unli va undoshlardan farqi**

Unli tovushlarning tembri og'izning katta yoki kichik ochilishiga bog'liq. Til oldi unlilarining talaffuzi vaqtida til oldinga qarab siljiydi. Nemis tilida til oldi unlilariga[i:], [ɪ], [e :], [E :], [E],[Y:],[ø :], [ø],[a] tovushlari kiradi.

Til orqa unlilari talaffuz qilinganda til orqa tomonga siljiydi. Nemis tilida til orqa unlilariga [o:], [ɔ]. [a :], [u:], [v] unlilari kiradi.

Nemis tili undoshlari quyidagicha tasniflanadi:

Aktiv nutq organlarining ishtiroki va to'siqning hosil bo'lish o'rniga ko'ra; bunday artikulyasion belgilarga ko'ra undoshlar lab, til, bo'g'iz undoshlariga bo'linadi. Lab undoshlari ikki xil bo'lib, bular lab-lab undoshlari, lab-tish[p], [b] [m] tovushlaridir. Nemis tili lab- tish undoshlari [f], [v] [pf] tovushlaridir

Til tovushlari til oldi, til o'rta va til orqa tovushlariga bo'linadi.

Nemis tili til oldi undoshlari [t], [d], [ζ], [z] [ts],[z] [ tʃ] tovushlaridir.

Til o'rta undoshlariga nemis tilining [s], [j] fonemalari kiradi. Nemis tilining [x], [n] [k] [g] undoshlari talaffuz etilganda til orqasi tanglay tomon ko'tariladi. Shuning uchun ham bu undoshlar til orqa undoshlari deb ataladi.Binobarin, o'qituvchining nutqi ayni vaqtning o'zida ham ishlab chiqarish quroli, ham ma'lum darajada san'at bo'lmozi kerak.<sup>10</sup> O'qituvchidan badiiy o'qish ustasi-artist bo'lish talab qilinmaydi, ammo u ifodali o'qiy olishi shart.

O'qituvchi o'quvchilarga oson tushuntirishi, ko'rgazmalilikni individual (yakka-yakka) va xor bo'lib aytib, bajariladigan mashqlar bilan uyg'unlashtirib, ogzaki nutq va o'qishda talaffuz ko'nikmalarini mustahkamlashga erishmogi hamda mustahkam artikulyasion baza hosil qilish yuzasidan hormay-tolmay ish olib bormog'i kerak.

---

<sup>10</sup> Земняя И. А. «Психологический анализ говорения речевой деятельности» В сборнике «Методика преподавания иностранных языков в вузе: М.1989 г.

Chunonchi, o'zbek o'quvchilari nemischa [y:] o'rniga o'zbekcha «yu», «u», [ç]o'rniga o'zbekcha «x» ni, [i:] o'rniga o'zbekcha «i» ni talaffuz etadilar va hokazo.

Nemis tilini o'rgatish, xususan nemischa talaffuzga o'rgatish, o'quvchilarga faqat ko'nikma va malaka beribgina qolmay, ularning tafakkurini ham o'stirish kerak. Fonetika asoslarini bilish o'quvchilarning nemis tilini va o'z ona tillarini talaffuz etish sohasidagi bilim darajalarini kengaytiradi.

O'quvchilarning nemis tilidagi tovushlarni anglab talaffuz etishlariga erishishda ona tilining o'quv materiali yordam beradi.

Umumta'lif maktablarining 5-sinfida o'quv yilining boshidanoq ona tili fonetikasining asosiy tushunchalari, ya'ni nutq organlari, aktiv va passiv artikulyasiya qiluvchi organlar, unli va undoshlar, harf va tovushlar munosabati va boshqalar bilan tanishadilar. Nemis tili o'qituvchilaridan o'zbek tili fonetikasi asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish talab etiladi, bu esa to'g'ri o'qitish uchun zaruriy manbadir.

O'quvchilarga ona tilidan misollar keltirilsa, foydadan xoli bo'lmaydi, chunki o'zbek tilida [x] tovushi bor, u ayrim sifatlari bilan nemischa [ç] ga o'xshab ketadi: Masalan: aholi, mehnat, mehribon, hadis, handalak, hurmat, ehtirom, ehtiyot kabi so'zlarda o'quvchilar tovush o'xshashligini tezda payqab, nemischa tovushlarni ham ancha to'g'ri talaffuz etadilar. Bundan tashqari [ç] tovushini mustahkamlash uchun bir nechta qofiyali satrlarni ham berish mumkin.

*Wie die Mache, so die Sache.*

*Jedes Dach hat sein Ungemach.*

*Der Richter richtet richtig.*

*Ich spreche den «Jchlaut» nicht richtig. Es ist aber sehr wichtig ihn richtig zu sprechen.*

O'quvchilar bularni qiziqish bilan o'rganib olib, tovushlarni eslab qolishlari aniq. Til uchi pastki tishlarga taqalganda, til orqasi beixtiyor avtomatik ravishda ko'tariladi, bu holatga o'quvchilar diqqatini unchalik jalb etmasa ham bo'laveradi.

Qattiq tanglayning old qismi va til o'rtasi oralig'idan havoning sirg'alib o'tishi natijasida kuchli shovqindan iborat [ç] undoshi hosil bo'ladi.

[ç] tovushini tushuntirishga doir yana bir misol keltirish mumkin, o'quvchilarga cho'ziq [i:] ni talaffuz etish, so'ngra esa nafasni o'zgartirmay [ç] deyish buyuriladi, chunonchi: [ii:i: ich].

Nemis tilida shuningdek, ovozsiz talaffuz etiladigan [h] undoshi, jarangsiz, shovqinli bo'g'iz tovushi ham mavjud bo'lib, imloda N h harfi bilan ifoda etiladi.

Agar tilning artikulyasiya qiluvchi harakati o'quvchilarga tushuntirilmasa, ular bu tovushni o'zbekcha qattiq [x] singari talaffuz etadilar. Buning natijasida [ha:ben] so'zi o'rniga dag'alroq tarzda «xaben» shaklida talaffuz etadilar.

O'qituvchi o'quvchilarga og'izlarini katta ochishni, til uchini og'iz bo'shligining chuqurligi ostiga, ya'ni pastki tishlardan pastroqqa tushirishni taklif etadi, shunda til orqasi chiqarilayotgan havo oqimining erkin chiqishiga halaqit bermaydi, chunonchi *ha..., ha..., haben, Haar, hi..., hier, he..., he..., Heft*. Bu usul til orqasining avtomatik tarzda ko'tarilishini bartaraf etadi.

Shuningdek, o'quvchilarga til uchi holatini o'zgartirmasdan, oynaga qarab yoki bir varaq qogozga nafas olish va nafas chiqarishni tavsiya etish mumkin.

*ha..., ha..., haben; he..., he..., Heft, Jch habe ein Heft.*

*Jch habe einen Hut.*

O'quvchiga bu toifadagi usul qiyin emas, balki tushunarli bo'lib, o'quvchi buni osonlik bilan bajaradi, chunki o'quvchi til uchini erkin boshqaradi. Bunday usul artikulyasiya holatiga mos qo'yiladigan talabning aynan o'zginasidir. Mazkur usul amaliyot paytida qo'llanilib, o'quvchilarga [h] tovushini «*Hauch-laut*» ni

o'zlashtirib olishga imkon yaratdi. Tovushni mukammallashtirish uchun quyidagi tez aytish tavsiya etiladi:

*Hinter Hermann Hannes Haus*

*haengen hundert Hemden raus*

Keltirilgan misollar yanada esda qolishi uchun o'quvchilarga ona tilidan ham shunga o'xshash so'zlar beriladi. O'zbek tilida faqat ma'lum darajada o'xshash va so'z boshida keladigan [x] tovushi mavjud bo'lib, chunonchi hushyor,hurmat,havo, holat va h.k.

Bu diftonglar fonologik jihatdan ajratib bo'lmaydigan bir bo'g'indagi ikki unli harfning birikmasidir. Ularning har ikkalasi bir fonemani ifodalaydi.

O'zbek tilida alohida fonemalar tarzidagi diftonglar mavjud emas. Ammo, bir bo'g'in qilib talaffuz etiladigan fonema birikmalari uchrab turadi.

Nemis tilidagi singari bunday fonemali birikmalarda birinchi element bo'g'in hosil qiluvchi, ikkinchi element esa kuchsiz, yordamchi ovoz beruvchi elementdir. Chunonchi: *eilen-* *aylana*, *Bein-* *bayram*, *hein-* *nay*, *heute-* *oy*, *moy*, *loy*, *kleine-* *og'ayni*.

Yuqoridagi misollardan ko'riniib turibdiki, o'zbek tilida ham xuddi nemis tilidagidek faqat pasayuvchi diftonglar mavjuddir. O'quvchilar bu diftonglar talaffuzini yaxshi o'zlashtirib olishlari va tarkibida diftonglar mavjud bo'lgan so'zlarni yod olishlari uchun ularga quyidagi qofiyalangan ifodalarni tavsiya qilishimiz mumkin:

*Eile mit Weile.*

*Einmal ist keinmal.*

*Jeder freut sich iiber Klaus,*

*Weil er fleiBig hilft im Haus*

*Jn der Schule ist der Klaus*

*Auch so tüchtig wie im Haus.*

*Jch habe viele Haute*

*Und heiBe alle Leute.*

*Morgen, morgen, nur nicht heute*

*sagen alle faulen Leute.*

Binobarin, o'quvchilar diftonglar talaffuzini to'g'ri o'rganishlari va o'zlashtirishlari uchun diftonglardagi har bir elementni alohida yakka tarzda talaffuz etmasliklari, ularni cho'ziq talaffuz qilishga yo'l qo'ymasliklari uqtiriladi.

Shuningdek, affrikatlar talaffuzini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarurdir.

Yuqoridagilardan tashqari nemischa talaffuzga o'rganishda unlilarning cho'ziq va qisqa talaffuz qilinishi va undoshlarni o'zbek tilidagiga nisbatan qattiqroq talaffuz etilishi kabi qiyinchiliklar mavjud. Shu kabi xususiyatga urg'u, assimilyasiya va intonasiya ham kiradi.

## **2.2.Nemischa talaffuzda o'quvchilarda uchraydigan**

### **fonetik xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari.**

Nemis tili fonetik bazasining xarakterli xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirmaganliklari natijasida ko'p hollarda o'quvchilar o'zbek tilidagi odatiy artikulyasiyani nemis tili talaffuziga ko'chiradilar.

Bunday tipik artikulyasion xatolar to'grisida fikr yuritaylik.

1. 1, m, p sonor undoshlarining qisqa unlidan keyin kuchsiz talaffuz qilinishi.

Masalan:[valt] [kʌmt] , [zʌnt].

[h] fonemasining o'zbekcha [x] bilan almashtirilishi. Og'iz bo'shlig'ining mazkur tovushni ifoda etish uchun (artikulyasiya) zarur bulgan torayish odatining yo'qligi va fonema sifatida farq qilmaslikdir.

Tovush artikulyasiyasini bilishdan tashqari, [h] tovushining fonematik ma'nosini va uning unlidan oldin bug'in boshida tutgan o'rning xususiyatini tushuntirish, uni misollarda faqat orqa qator unlilardan keyin ishlatiladigan [h] tovushiga solishtirib ko'rish zarur. Chunonchi, [h] tovushining unlidan oldin bugin boshida o'zbek tilidagi yumshoq [x] tovushiga uxshab talaffuz qilinishi tushuntiriladi. Masalan: Hund, Hut, heute, erhalten, behalten, verhalten. [h] tovushining orqa qator unlilaridan keyin esa o'zbek tilidagi [x] tovushi singari, lekin biroz kuchliroq talaffuz etiladi. Masalan: Buch, Kuchen, suchen, Nacht, noch, auch, Rauch.

[ç] fonemasining [x] fonemasi bilan almashtirilishi. O'zbek o'quvchilarining bunday o'ziga xos xatosi artikulyasiya muayyan turi malakalarining mavjud emaslidigidir. Bu kabi xatolarni [ç], [x], [h] tovushlarining qaerda turganligiga, ularning artikulyasiyaga karab taqqoslash natijasida bartaraf qsilish mumkin.

[ŋ] fonemasining [ng] birikmasi bilan almashtirilishi.

Nemis tilidagi unlilarning dona-dona qilib kuchli va kuchsiz talaffuz qilinishi mazkur til uchun xarakterli xususiyat ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Nemischa unlilarning diftonglashuvi. Unlilar talaffuzining etarli darajada shiddatli (intensiv) emasligi xatoning sabablaridan biri hisoblanib, buning natijasida artikulyasiya paytida ishtirok etuvchi organlar bir holatdan ikkinchi holatga o'tib ketadi.

Ayrim hollarda o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri va aniq talaffuzni yo'lga qo'ymay turib asosiy diqqatni og'zaki nutq va o'qishga qaratadi.

O'qitishning dastlabki bosqichida 5-6 sinflarda talaffuzga e'tiborni kuchaytirib, o'qituvchi yuqori sinflarda esa talaffuzga ba'zan mutlaqo e'tibor bermaydi va buning natijasi o'laroq o'quvchilarda to'gri talaffuz ko'nikmalari yuqolib boradi. Shuning uchun boshlang'ich bosqichdayoq talaffuz ko'nikmalarini o'stirish bilan og'zaki nutq malakalarini o'stirish birga olib boriladi.

O'qitishning dastlabki bosqichida talaffuzga o'rgatishdagi jiddiy nuqson o'quvchilarning nemis tilidagi nutqni eshitish jarayoni bilan uni aytish nisbatan noto'g'riliqidir.O'quvchilar aytishdan ko'ra ko'proq tinglaydilar, eshitadilar.Shuning uchun, yuqorida qayd qilinganidek, tovushni tushuntirishda muayyan izchillik bo'lmos'hish lozim.Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud.Tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklar birtalay.Ularni bilsh chet til o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir.Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan.Chet til o'qitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi. Maktab sharoitida o'quv-chilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:..

*Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar.*Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audiomatnning murakkabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audio-matnni bir marta idrok etish, notanish odamni tinglash, ovoz-dagi o'ziga xoslik kabilar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy.

*Nutq shakliga oid qiyinchiliklar.*Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa uzun jumlalarni eshitish xotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.O'quvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchilik-larni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi.

Til o'rganishda yoki umuman hayotda voqe bo'ladigan qi-yinchiliklar sabab va oqibatning bir-biri bilan bog'liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchilikni oldindan aniqlash, uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi xatolar turi vako'zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. O'quv-chilarning o'zgalar nutqini idrok etib, uning mazmunini fahm-lay olishlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to'g'ri shakllan-tirish katta ahamiyat kasb etadi.Texnik vositalar: kompyuter,

o'quvinofilmlari, shuningdek, she'r, ashula, tez aytishlar o'quvchilarni talaffuzga va og'zaki nutqqa o'rgatishning samaradorligini yanada oshiradi.

Eshitish qobiliyatini o'stirishning barcha turlarida, eshitib o'zlashtirishda, talaffuzni o'rgatishdagi mashqlarda, ma'lum ohangda gapirishda, nemischa nutjni boshqalar ijrosida ovoz chiqarib aytish qobiliyatini o'stirishda namunali nutq bilan o'zining yozib olingan nutqini amalda qiyoslashda foydalanish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni yozib olingan ovozni eshitishga, ya'ni u yoki bu tovush, so'zning talaffuz etilishini, urg'u va intonasiyaning o'ziga xos xususiyatini sezalishga o'rgatishi lozim.

O'quvchilar tegishli belgi qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun matnning ayrim joylarini qalam bilan belgilab, bir necha bor kitobni o'qib, ayrim joylarini xor bo'lib takrorlash orqali mustahkamlashlari lozim.

Agar o'qituvchi o'z ishiga ijobiy yondoshsa, o'quvchilar xatosini bartaraf etishning boshqa usullarini ham topishi mumkin. Nemis tilini o'qitishning dastlabki bosqichida talaffuzni to'gri yo'lga qo'ygan va o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini o'stirishga hamisha jiddiy e'tibor bergan o'qituvchining ishi doimo muvaffaqiyatli bo'ladi.

### **2.3.Gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar**

Nemischa talaffuzga o'rgatishdagi muvaffaqiyat har jihatdan o'qituvchi qo'llaydigan uslubiga bogliqdir.

Nemis tilini o'rgatadigan o'qituvchi har bir o'quvchining talaffuziga individual yondoshishi lozimdir.Ular yo'l qo'yadigan xatolarni bartaraf etish usullarini o'ylab topishi zarur hisoblanadi.

O'qituvchi ushbu tilning intonasiya vositasidagi barcha boyliklarini bilishi muhimdir. Ayrim so'z, so'z birikmalari va nutq mobaynidagi fonemalar artikulyasiyasi saviyasi qoidadagidek bo'lishi kerak.

Yangi artikulyasion qoidalarni o'quvchilar ongiga singdirishda o'qituvchi o'rganilayotgan vaqiyoslanayotgan til talaffuzini ifodali qo'llay bilishi kerak.

Bu borada o'qituvchi har gal ilg'or pedagogik tajriba va ko'nikmalardan keng ko'lamba foydalanishi kerak. O'quvchilarda to'gri talaffuz ko'nikmalarini hosil qilish uchun ba'zi bir amaliy usullardan foydalanish mumkin.

Masalan: o'quvchilar ko'p hollarda old qator unlilardan, asosan [i] dan oldin undoshlarni ancha yumshoq talaffuz etadilar. O'qituvchi buni misollar bilan isbotlagan holda, aksincha undoshlar old qator unlilardan oldin qattiq talaffuz qilinishini uqtiradi.

Chunonchi: Hirt, Wirt, Herbst va hokazo.

Agar shu holatda ham o'quvchi buni anglab etmasa, o'qituvchi so'zni ajratib olib, uni qismlarga ajratib, asta-sekin yaqinlashtirish metodi asosida ko'maklashadi.

O'quvchilar xatosini oldini olish uchun artikulyasion baza o'rnini o'zgartirishga yordam beradigan mashqlar, talaffuzda ishtiroy etadigan organlarni alohida-alohida tayyorgarlik asosida ko'rsatish usuli foydalidir. Bunda o'quvchi talab etilgan til holatini esda tutgan holda tovushni aniq va shoshmasdan talaffuz etadi.

Talaffuzga o'rgatishdagi asosiy vazifa o'quvchilarda o'zini va o'zgalar nutqini kuzatish, nutq organlaridan to'gri va ongli ravishda foydalana bilish va ular ishini kuzatib turish qobiliyatini shakllantirish va o'stirishdan iboratdir.

Biror yangi tovush artikulyasi o'quvchilarga tushuntirilib, uni alohida so'zda va gapda qo'llagandan so'ng, o'quvchiga o'z o'rtoqlari ifodasida uchraydigan xatolarni anglashga o'rgatish lozim. O'qituvchi nutqini shunchaki mexanik tarzda takrorlashayotganini, balki shu orqali to'gri talaffuz, yozish va o'qish k'nikmalari ularda shakllanayotganini tushuntirish lozim. To'g'ri talaffuzga faqat namunali nutqqa taqlid qilish orqali erishiladi.

Bunda texnik vositalarning yordami asosiy o‘rin egallaydi.Kompyuter, CD disk, o’quv kinofilmari mакtab va liseylarda tobora kengroq ko’lamda foydalanilmoqda.

Eshitish qobiliyatini o’stirishning barcha turlarida, eshitib o’zlashtirishda, talaffuzni o’rgatishdagi mashqlarda, ma'lum ohangda gapirishda, nemischa nutqni boshqalar ijrosida ovoz chiqarib aytish qobiliyatini o’stirishda namunali nutq bilan o’zining yozib olingan nutqini amalda qiyoslashda foydalanish mumkin.

O‘qituvchi o’quvchilarini yozib olingan ovozni eshitishga, ya’ni u yoki bu tovush, so’zning talaffuz etilishini, urgu va intonasiyaning o’ziga xos xususiyatini sezalishga o’rgatishi lozim.

O‘quvchilar tegishli belgi qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun tekstning ayrim joylarini qalam bilan belgilab, bir necha bor kitobni o'qib, ayrim joylarini xor bulib takrorlash orqali mustahkamlashlari lozim.

Agar o‘qituvchi o’z ishiga ijobiy yondoshsa, o’quvchilar xatosini bartaraf etishning boshqa usullarini ham topishi mumkin. Nemis tilini o‘qitishning dastlabki bosqichida talaffuzni to’gri yo’lga qo'ygan vao’quvchilarning og’zaki nutq malakalarini o’stirishga hamisha jiddiy e’tibor bergan o’qituvchining ishi doimo muvaffaqiyatli bo’ladi.

### **III.XULOSA**

Bayon etilganlarga yakun yasab, quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Talaffuzga o'rgatish metodikasini ishlab chiqishda ona tili fonetikasi sistemasiga nisbatan nemis tili fonetikasi sistemasida o'ziga xos xususiyatlar borligi sababli, paydo bo'ladigan konkret qiyinchiliklar hisobga olinishi lozim.O'rta maktablarda fonetik hodisalarini to'liq o'zlashtirish ancha qiyinligiga qaramasdan quyidagi gruppalarga ajratamiz. Ona tilidagi aynan o'xhash va deyarli qisman o'xhash va bu tilda batamom uchramaydigan hodisalar.

Nemischa talaffuzga o'rgatishda taqlid qilish va bir-birini to'ldirgan holda tushuntirish muhimdir. O'zbek maktablarida nemis tili fonetikasini o'rgatish o'quvchilarning ona tilisidagi tovushlarga tayanib olib boriladi.

Nemis tilidan dars beruvchi har bir o'qituvchi o'quvchilarning talaffuz etishdagi tipik xatolarini tuzatishda ko'maklashadigan asosiy usullarini bilishlari kerak.

O'quvchi tovushni noto'g'ri talaffuz etganini payqashning o'zi etarli emas, balki xato tabiatini va xarakterini aniq bilib olmoq kerak, shunga qarab tegishli to'g'rilash usulini tanlash lozim.

Talaffuz qilishni o'rgatishda namunani eshitib bo'lgach, uni eslab takrorlash mashqlari juda muhimdir. Bu mashqlar o'z navbatida ko'nikmalarni tarkib toptirishga va ularni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Aktiv eshitish, maqsadga muvofiq ravishda eslab takrorlashga qiziqish uyg'otish uchun bu mashqlar ma'lum ko'rsatmalar bilan ta'minlanishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qitishning dastlabki bosqichida talaffuzni yaxshi, to'gri va aniq yulga qo'ygan va o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini o'stirishga hamisha jiddiy e'tibor bergen nemis tili o'qituvchisining ish faoliyatini doimosamarali bo'lishiga ishonchimiz komil.

So'zlarning ma'nosini va ularning garmmatik formasini, ya'ni ot so'z turkumiga kirishi va ularning rodi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.

b) Bu narsa eshitganni takrorlash mobaynida andoza rolini bajaradi.

O'zini tinglash mashqlarini ko'rib chiqamiz.

Tinglash aktiv tarzda bo'lishi kerak, shuning uchun tinglash mashqlarini o'quvchilarning erkin diqqatini mazkur fonetik hodisaga jalg etuvchi aniq vazifalar bilan birga qo'shib olib borish kerak. TTTu maqsadda o'rganilayotgan hodisalarni farqlashga qaratilgan quyidagi mashqlar tavsiya etilishi mumkin:

Bir qator so'zlarni tinglang va tarkibida yangi tovush bulgan so'z talaffuz kilinganda qo'lingizni ko'taring.

Bir qator gaplarni tinglang va darak (so'rok, undov) gaplar talaffuz qilinganda qo'lingizni ko'taring.

Bir qator tovushlarni tinglang va yangi tovush talaffuz etilganda qo'lingizni ko'taring.

Kontekst jihatdan o'zaro bog'langan matnni tinglang va ma'no jihatidan mos kelamydigan gapni ajratib ko'rsating. Bu mashq fonologik qarama -qarshilikni aniqlashga asoslanadi. Bog'langan matnga ma'no jihatidan mos kelmaydigan so'zlar kiritiladi.

Mazkur mashq faqat tovushni tanib olishga emas, balki bog'langan nutqni yaxlit tushunib olishga ham katta talablar qo'yadi.

Aytib o'tilgan mashq turlari uchun dastlab materialni o'qituvchi talaffuz qilishi mumkin. Agar shunday bo'lganda, uning nutq organlari ma'lum artikulyasiya, shuningdek, mimikasi va ko'p harakatlari o'quvchilarga tovushlarni tanib olishga yordam beradi, yoki o'quvchilar aynan shu mashqni tinglab tushunishlari mumkin.

Mashqlarning navbatdagi turi birmuncha murakkab bo'lib, o'quvchilar uni bajarish davrida ko'rish tayanchiga ega bo'lmaydilar.

O'z-o'zini tinglash borasidagi fonetik mashg'ulotlar uncha ko'p emas, ular o'qitish prosessida kichik o'rinni egallaydi, eshitib takrorlashga esa ancha ko'proq o'rin ajratiladi. Bu mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zlarining aytganlarini namunadagiga qaragan holda taqqoslab ko'rib, xatolardan xoli bo'la boshlab, sinov mashqlarini bajaradilar. Psixolog Z.I. Xodjaeva tomonidan tavsiya etilgan mashqlar klassifikasiyasi shu guruh mashqlari uchun foydalanishda maqsadga muvofiqdir.

Psixolog ko'nikma hosil qilishga qaratilgan mashqlarni quyidagicha ajratishni tavsiya qiladi:

- a) Ko'nikma hosil qilishga va takomillashtirishga imkon beruvchi o'quv mashqlari;
- b) Hosil qilingan ko'nikmalarni saqlashga qaratilgan mashqlar.

Ushbu klassifikasiyaga asoslangan holda fonetik mashqlar xarakterini biroz qarab chiqamiz. O'quv mashqlari uchun bo'g'inlar, so'zlar, so'z birikmalari, iboralar material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'quv mashqlari quyidagicha bajariladi:

O'qituvchining o'zi yoki magnitofon yordamida o'quvchilarga namuna bo'ladi, o'quvchilar xor bo'lib, so'ngra esa yakka-yakka tarzda takrorlaydilar.

Bunday tipdagи mashqlarda namuna katta rol o'ynashini ta'kidlab o'tish kerak.

Maktab tajribasida o'quvchilarning namunani tinglamasdan takrorlashga juda tez o'tishini kuzatish mumkinki, bu narsa esda saqlash sifatida salbiy ta'sir qiladi.

Mashqlarning bu turida boshqa turdagи mashqlarda bo'lganidek, aktiv tinglash va tovushlarni maqsadga muvofiq ravishda idrok etish juda muhim ahamiyatga egadir.

Shu boisdan mazkur mashqlarni bajarishdan avval mana bunga o'xshash ko'rsatmalar berish kerak: so'zlarni tinglang, ularni takrorlang,

unlilarning cho‘ziqligiga e'tibor bering, shunga o'xshash yo'llanmalar xususan ovozli darslik yaratishdagi birinchi tajriba bo‘lgan F.K.Emixning «Magnitofon bilan bajariladigan mashqlar to'plami»ning barcha mashqlarida berilgan tovushlarni taqqoslash orqali ularning sifatini ajratib ko'rsatadigan mashqlar alohida ahamiyatga egadir.

Mashqlarning bu guruhiba o'qituvchi aytadigan so'zlarga qofiyadosh so'zlarni topish mashqlari ham kiradi.

Ammo, bunga o'xshash mashqlarga berilib ketish boshlang'ich bosqichdagilug'at minimumi doirasidan chiqib ketishga va shu sababli bu bosqichdagio'quvchilar uchun ma'noga ega bo'limgan so'zlarning kirib qolishiga sabab bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, o'quv mashqlari sifatida oppozisiyaning semantik umumiyligi bilan xarakterlanadigan

Vater - Mutter – Kind- Erde - Wasser - Baum Mond - Stern - Tag Sommer -  
Herbst – Winter-Nacht Stuhl - Tisch Sofa - Sessel

tipidagi mashqdan foydalanish kerak.

Urg'uli unlining sifati esa qarama -qarshidir. Bu xildagi oppozisiyalar vaziyat jihatidan shartlangan, binobarin, mashqni tashkil qiluvchi so'zlar o'quvchilarni elementar nutqida qo'llaniladi.

Bu so'zlar deyarli har bir maynda ajratib olinishi va fonetik mashqlarga kiritilishi mumkin.

Mashqlarning ikkinchi guruhini ta'riflashga o'tamiz. Mashqlarning bu turiga eng qiyin tovushlar va intonasiya hodisalariga ega bo'lgan fonetik mashqlarning turli shakllari kiradi. Bu turga shuningdek, xilma-xil nutq mashqlari oldidan bajariladigan tayyorgarlik mashqlarini ham kiritish mumkin. Bu mashqlar xatoning

oldini olishga yordam beradi, chunki ularga o'quvchilar keyin nutq faoliyatida (ogzaki nutk va ukishda)‘ kullanishi kerak bo'lgan fonetik hodisalar kiritiladi.

Mashqlarning bu turiga, xullas she'rlarni, sanoqqa oid mashqlarni, qisqa dialoglarni, katta bo'lmasan ravon hikoyalarni yod olish va talaffuz etish kiradi.

Binobarin , bu fonetk til materiallarini o'rganish haqidagi to'g'ri va aniq tushunchalar olishga , o'z navbatida o'quvchilarning keyingi amaliy faoliyati uchun mazkur predmetlardan erkin foydalanish uchun kerak bo'ladigan til materiallarini o'zlashtirish imkoniyatini oshiradi .

Davlatimiz jadal sur'atlar bilan taraqqiy etadigan davrda zamonaviy o'quvchining gapirish ko'nikmalarini shakllantirish borasida ularning talaffuzini yaxshi yo'lga qo'yish, nutqini o'stirish , nafaqat chet tili darslari uchun , umuman jamiyatimiz uchun muhim omillardan biridir

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .**

1. Karimov I. A . “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori ”, Toshkent “Sharq nashriyoti” 1998 y .
2. Karimov I.A. Barcha reja dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish , xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi . Prezident I. A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi . Ma’rifat , 2011 yil 22- yanvar .
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi ” “sharq nashr”. Toshkent . 1998 y
4. KarimovI.A “Kuch - bilim va tafakkurda ”, “O’AJBIT” Markazi,Toshkent .2002y
5. KarimovI.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida”, Toshkent “O’ZB” nashriyoti 2003 y.
6. AbduqodirovaG. M. Nemistiliamaliyfonetikasi. T., 1978.
7. Jalolov . J. “Chet tili o’qitish metodikasi ”, Toshkent “o’qituvchi nashriyoti” 1996 y .
8. Mirolyubov A.A . Rahmonov M. V , Setlin V.S . “O’rta maktablarda chet til o’qitishning umumiy metodikasi” , Toshkent “O’qituvchi ”1974 y.
9. Nurmatov T. A., Xusanxo’jayev B. M., Jo’rayev E X., OchilovT., Nemis tili fonetikasi.2002 y.
- 10.Pedagogik fanlarni o’qitishning mazmuni va metodi” . Ilmiy tekshirish Instituti . “O’rta maktablarda chet tili o’qitish kursi ” Professor Setlin V.S tahriri ostida . Toshkent “ O’qituvchi”1978 y.
- 11.Saidaliyev S.B. “Chet tili o’qitish metodikasidan ocherklar” , Namangan , 2004 y .
- 12.Zaripova R.A. “Chet tillar o’qitish metodikasidan qo’llanma ”, Toshkent , “O’qituvchi” 1986 y .

- 13.O’rtamaktablardaxorijiytilo’qitishmetodikakursibo’yichapedagogikainstitutlariprogrammasi . Т. 1977 у.
- 14.Джалолов Дж. Программа курси “Методика обучения иностранным языкам”Д.Д.Т 1982г.
- 15.Карпов. К. В.Вводно-фонетический курс немецкого языка. М.,1970.
- 16.Кузмин О.Г. и др. Практическая фонетика немецкого языка. М., 1978.
- 17.Махмудов А. Словесное ударение в узбекском языке. М.,1970,
- 18.Норк О. И. Основные интонационные модели немецкого языка. В. Шк. 1964М.
- 19.Норк О. И. Фонетика немецкого языка. М, 1976.
20. Норк О. И. Милюкова Н. А. Фонетика немецкого языка. М, 1977.
21. Рогова Г.В., ВерещагинаИ.Н.” Методика обучения немецкому языку на начальном этапе в средней школе” М .1996.
- 22.FinkoskiH. Sprecherzielerisches Elementarbuch. Leipzig1 1967
- 22.Stotzer U. Deutsche Phonetik. Schallplattenkurs. Leipzig, 1970.
23. <http://www.yahoo.de>
24. <http://www.google.de>
25. <http://www.alta-vista.de>
26. <http://www.suchmaschine.de>
27. <http://www.de.wikipedia.org>